

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAXMANOVA ALBINA XODJAYEVNA

**RUS ADABIYOTIDAGI QUR‘ONiy MOTIVLAR
MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA
HODISASI SIFATIDA
(A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, I.A.Bunin)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Raxmanova Albina Xodjayevna

Rus adabiyotidagi qur'oniylar motivlar madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida (A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, I.A.Bunin)..... 3

Рахманова Альбина Ходжаевна

Коранические мотивы в русской литературе как явление межкультурной коммуникации (А.С.Пушкин, М.Ю.Лермонтов, И.А.Бунин)..... 39

Rakhmanova Albina Khodjaevna

Quranic motives in Russian literature as a phenomenon of intercultural communication (A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, I.A.Bunin)..... 77

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 83

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAXMANOVA ALBINA XODJAYEVNA

**RUS ADABIYOTIDAGI QUR‘ONiy MOTIVLAR
MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA
HODISASI SIFATIDA
(A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, I.A.Bunin)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/Fil292 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Petruxina Natalya Mixaylovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kamilova Saodat Ergashevna
filologiya fanlari doktori, professor

Jurakulov Uzokboy Xaydarovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Garipova Gulchira Talgatovna
filologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya)

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi, 400. Tel.: (+998) 71-246-08-62; faks: (+998) 71-246-65-21; e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti, 1-etaj, 117-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi, 400. Tel.: (+998) 71-246-08-62; faks: (+998) 71-246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2023-yil “___” ___dagi ___- raqamli reestr bayonnomasi).

A.G.Sheremetyeva

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

N.E.Abdullayeva

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

I.A.Siddikova

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida hozirgi vaqtda madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirish muammolari va uning istiqbollari alohida qiziqish uygʻotmoqda. Axborot texnologiyalari, jadal muloqotga boʻlgan ehtiyoj bugungi kunda gumanitar jabhaning oʻzaro munosabatli va integratsiyalashgan sohalari: adabiyotshunoslik, madaniyat, tilshunoslik, psixologiya, falsafa va boshqalar ilmiy paradigmasini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu boisdan insoniyatning eng muhim kitoblari – Muqaddas kitoblarni tushinishda madaniyatlararo kommunikatsiyaning rivojlanish muammolari va oʻziga xos xususiyatlari axborot taʼsir doiralari kengayishi, jamiyatning globallashuvi va turli madaniyatlarning integratsiyalashuvi, madaniy oʻzaro taʼsir va tushunishni hal qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar bilan bogʻliq holda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida qurʻoniy motivlar muammosini madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida oʻrganish katta ahamiyatga ega boʻlib, ushbu yoʻnalishning adabiyotshunoslik jihatlari koʻplab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar uchun platformaga aylanmoqda, chunki mazkur faoliyatning muammoli maydoni insoniyat madaniyatlararo munosabatlari asosiy predmeti sifatida madaniyatlar oʻzaro taʼsirining qadriyatli ustuvorligi masalalarini hal qilishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar sof adabiyotshunoslikdan tashqari, bir vaqtning oʻzida bir nechta sohalari: kommunikativistika, antropologiya, etno-, sotsio- va psixolingvistika, semiotika, madaniy psixologiya, lingvomadaniyatshunoslik, lingvodidaktika, germenevtika va boshqalarni qamrab oladi hamda bu yoʻnalishning rivojlanish spektrlari qanchalik hajmli va keng ekanligini koʻrsatib beradi.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda Muqaddas yozuvlar (kitoblar)ni oʻrganish va madaniyatlararo kommunikatsiya muammolariga boʻlgan qiziqishning yanada ortishi xalqaro integratsiya jarayonining jahondagi turli hamjamiyatlar etnomadaniy oʻziga xosliklarini oʻrganish bilan bogʻliq. Xilma-xil madaniyatlarga ega turli etnoslarni birlashtirgan koʻp millatli Oʻzbekistonda madaniyatlararo muloqotning samarali tizimini yaratish, orttirilgan tajribani chuqur qayta anglash hamda madaniyalarni yanada boyitishning yangi yoʻllarini ishlab chiqish va shu sohada bunday oʻzaro taʼsir yuzasidan izlanishlar xalqning oʻzaro munosabatlardagi yangi modeli belgilarini koʻrsatmoqda. Soʻnggi yillarda mazkur yoʻnalishdagi izlanishlar davlat tomonidan har tomonlama qoʻllab-quvvatlanmoqda, chunki asrlar davomida saqlanib kelinayotgan eng yuksak maʼnaviy qadriyatlar – Muqaddas kitoblarni oʻrganish va asrab-avaylash masalalari “2022–2026-yillarda Yangi Oʻzbekistonni rivojlantirish Strategiyasi”da qayd etilgan vazifalar bilan bevosita bogʻliq boʻlib, unda davlat va oʻzbek xalqining asosiy qadriyatlari: shaxs sifatida inson qadri, ijodiy bunyodkorlik, taʼlim, madaniyat, fan, adabiyot, sanʼat, barkamol yoshlar, tinchlik, millatlararo totuvlik, ahil qoʻshnichilik, diniy bagʻrikenglik, mustaqillik, barqarorlik, xavfsizlik va h.k. belgilab berilgan¹. Shunday qilib, dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligi Qurʻon va qurʻoniy motivlarni rus adabiyotida madaniyatlararo kommunikatsiya

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot Strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmoni.

hodisasi sifatida o'rganish, o'zida Islom ma'naviyati va umuminsoniy g'oyalarni fenomenal tarzda mujassamlashtirgan abadiy-ma'naviy qadriyatlar kvintessensiyasi sifatida Qur'onda nozil etilgan madaniy-ramziy matn mohiyatini ochib berish, Qur'onning umumbashariy qadriyat yo'nalishlarini aniqlash va ularning A.Pushkin, M.Lermontov va I.Bunin asarlarida retseptiv tushunilishi muammolarini hal qilish zarurati bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3575-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotida innovatsion g'oyalar tizimi va ularni amalga oshirish yo'llarini shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi². Madaniyatlararo kommunikatsiyaning ahamiyatga molik hodisasi sifatida sharqshunoslik nazariyasi va qur'oniy motivlarni anglash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv muassasalarida, jumladan, Université libre de Bruxelles, Vrije Universiteit Brussel (Belgiya), Cambridge University, Oxford University (Buyuk Britaniya), Avstraliya Milliy universiteti (Avstraliya), Strasburg universiteti (Frantsiya), Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (O'zbekiston) va boshqalarda olib borilmoqda.

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: www.edu.uz; academia.edu; philology.ru; internauka.ru; cyberleninka.ru; doi.org kabi manbalar asosida tayyorlandi.

Shuni qayd etish lozimki, ayni paytda sharqona matnlarning janr-tematik birligini tadqiq qilish masalalari o'rganilgan (Lancaster University, Buyuk Britaniya; A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti, Rossiya); Qur'on qissa va rivoyatlaridan jahon adabiyotida foydalanish bo'yicha asosiy pozitsiyalar ko'rib chiqilgan (Tehran State University, Iran Ain Shams University (Cairo, Egypt); sharqona matnlar janri va turlari diniy-falsafiy jihatlarining mohiyati ochib berilgan (M.Akmulla nomidagi Boshqird davlat universiteti); sharqona motivlar namoyon bo'lishining turli xil xususiyatlari o'rganilgan, rus adabiyotida Sharqni tasvirlashning o'ziga xosliklari ochib berilgan (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti); strukturaviy tahlil obyekti sifatida rus adabiyotidagi musulmoncha matn xususiyatlari taqdim etilgan (Tomsk davlat universiteti); XIX asrning 20–30-yillar rus adabiyotida islomiy motivlar va obrazlarning mohiyati aniqlangan (Qirg'iziston-Rossiya slavyan universiteti). Bugungi kunda Sharq adabiy merosi va sharqona tushunchalarni zamonaviy tadqiq qilish sharoitida quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha faol tadqiqotlar olib borilmoqda: rus adabiyotida Sharq mavzusi; Sharq epistolyari va uning adabiyotdagi ko'rinishlari, sharqona matnning travelogik va imaginativ geografiyasi, rus sharqshunosligi tarixnavisligi, qur'oniy motivlarning diniy-falsafiy jihati, rus sharqshunosligining konseptosferasi, rus adabiyoti sharqona matnining janr-tematik birligi, qur'oniy rivoyatlar. Matnni tushunish va talqin qilish jarayonlarida inson omili va atrofdagi voqelik o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammolari prizmasi orqali adabiyotshunoslik hodisalarini o'rganishga kompleks fanlararo yondashuv barcha yo'nalishlarni o'zaro bog'lab turuvchi umumiy jihat hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zaro unumli adabiy ta'sirning haqiqiy imkoniyati sifatida Rossiya va Sharqning madaniy aloqalari va o'zaro ta'sirini aniqlash butun XX asr davomida tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Adabiyotlarning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'siri masalalari bo'yicha bunday ilmiy ishlanmalarning metodologik asoslari va nazariy poydevori V.M.Jirmunskiy, I.S.Braginskiy, V.M.Konrad, M.P.Alekseyev, I.G.Neupokoyeva³ asarlarida yaratilgan. Adabiyotlarning o'zaro ta'siri muammolarini har tomonlama tadqiq qilish murakkab tarixiy-adabiy jarayonlarni chuqur yoritishga yordam berdi.

Turli davrlar va dunyoqarash vakillarining ishlari bilan tanishib chiqib, ularni Qur'onni tafsir va idrok etish bo'yicha yagona bo'g'inga birlashtirib, biz, birinchi navbatda, rus adabiyotida Qur'on haqiqatlarini tushunishga evolutsion yondashuv g'oyasini shakllantirishga harakat qildik va shunday xulosaga keldikki, rus adabiyotida G.R.Derjavin, V.A.Jukovskiy, Y.P.Polonskiy, A.N.Apuxtin, A.N. Maykov, A.S.Pushkin, A.A.Shishkov, A.F.Veltman, M.Y.Lermontov, F.I.Tyutchev, A.N.Muravev, P.K.Obodovski, L.A.Yakubovich, I.A.Bunin, K.D.Balmont, N.S.Gumilev kabi ko'plab yozuvchi va shoirlar tomonidan musulmonlar Muqaddas kitobi – Qur'on postulatlarini va haqiqatlari, rivoyat va

³ Алексеев М.П. Русско-английские литературные связи. – М.: Наука, 1982; Он же. Международные связи русской литературы. – М.; Л.: Наука, 1963; Брагинский И.С. Проблемы востоковедения. – М.: Наука, 1974; Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1978; Конрад Н.И. Запад и Восток: статьи. – М.: Наука, 1978; Неупокоева И.Г. История всемирной литературы: проблемы системного и сравнительного анализа. – М.: Наука, 1976; Взаимосвязи и взаимодействия национальных литератур. – М.: Наука, 1961; Взаимосвязи литературы Востока и Запада. – М.: Наука, 1961 и др.

hikoyalari ko‘plab tafsir qilinganiga qaramay, aynan A.Pushkin, M.Lermontov va I.Bunin ijodida abadiy-ma’naviy qadriyatlar kvintessensiyasi sifatida o‘zida Islom ma’naviyati va umuminsoniy g‘oyalarni fenomenal mujassamlashtirgan Qur’onda nozil etilgan madaniy-ramziy matn mohiyatining asosiy o‘rinlari hayratlanarli tarzda tafsir qilingan. Turli adabiy-estetik tizimlarning aynan ushbu uch vakili ijodida Qur’onning umumbashariy qadriyat yo‘nalishlarini belgilash va ularni ijodda retseptiv tushunish orqali Qur’onning ontologik madaniy-ma’naviy mazmuni unifikatsiya qilingan, bu rus adabiyotining ushbu vakillari ijodida insoniyatning madaniy kodlarini ikki baravar oshirish jarayoni: Qur’on materiali va, shu asosda, rus adabiyotining qadriyat dominantlari tafsiri aniqlanishiga olib kelgan. Ushbu shoirlar ijodida madaniy kodlarning ikki barobar oshishi rus adabiyotining arab Sharqining yangi madaniy va mental kodi bilan aloqasi, uning ma’naviy va axloqiy ko‘rsatmalari bilan tanishishi orqali sodir bo‘ldi, buning natijasida Sharqni butunligicha tushunish uchun yangi qadriyat yo‘nalishlari idrok etildi va qayta tiklandi. Ushbu yondashuvning ahamiyati bizga rus adabiyoti tomonidan Qur’on haqiqatlari o‘qilishi va o‘zlashtirilishida universallashtirishning asosiy momentlari bo‘lmish madaniyatlararo kommunikatsiya regulativlari – madaniyatlar o‘zaro ta’siri umuminsoniy komponentlarining qadriyat dominantlarini qayd etish imkonini beradi. Aynan ana shu narsa bizga dunyoning yuksak ma’naviy qadriyatlarini anglash va hurmat qilish yo‘lida o‘zaro hamkorlik qilish va tanishishdek muhim muammoni hal etishga kirishgan A.Pushkin, M.Lermontov, I.Bunin ijodini yangicha talqinda ko‘rish imkonini berdi.

L.A.Sheyman va G.U.Soronqulov “Pushkin va uning zamondoshlari: Sharq va G‘arb” nomli ocherklar kitobida A.S.Pushkin ijodidagi sharqona motivlar, G‘arb-Sharq sintezi xususiyatlarini yoritib berishgan⁴. M.Y.Lermontov ijodiga sharqona va qur’oniy motivlar ta’sirining ko‘rib chiqilishi Sharq mavzusini yangicha talqin qilish va tushunish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, yozuvchi badiiy makonida maishiy va hayotiy darajalar: kundalik turmush, urf-odatlar, lisoniy xususiyatlar, dunyoga sharqona qarashning in’ikosi sifatida mental saviyaning paydo bo‘lishi kabi markerlar bilan namoyon bo‘ladi. Muhim muammolardan biri yozuvchining Sharq “g‘oyalari”, madaniy merosiga shaxsan qiziqishi va uning Islom madaniyati qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan “sharqona dunyoqarashi” konsepsiyasidir. M.Y.Lermontov ijodidagi Sharq mavzusi shu paytgacha adabiyotshunoslikda kam o‘rganilganiga qaramasdan, u Lermontov oriyentalizmini⁵, uning chuqur asoslarini yaqinlashish, ishtirok etish va ijodga singdirish orqali qayta anglashning dinamik jarayoni sifatida idrok etish masalasini ko‘rib chiqishning obyektiv va eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, unda Sharq va G‘arb turli madaniy qatlamlarining badiiy o‘zaro ta’siri jihatlarini ochib berilgan.

⁴ Шейман Л.А., Соронкулов Г.У. Пушкин и его современники: Восток – Запад: очерки. – Бишкек, 2000.

⁵ Гроссман Л. Лермонтов и культуры Востока // Фундаментальная электронная библиотека (ФЭБ); Лотман Ю. Проблема Востока и Запада в творчестве позднего Лермонтова // Лермонтовский сборник. – Л., 1985.; Эйхенбаум Б.М. Лермонтов как историко-литературная проблема // М.Ю. Лермонтов: PRO ET CONTRA. Личность и творчество Михаила Лермонтова в оценке мыслителей и исследователей: Антология. – СПб.: РХГИ, 2002. – Т. 1.; Захаров В. Лермонтов на Кавказе и проблемы ориентализма // Пространство и время в мировой политике и международных отношениях: материалы IV Конвента РАМИ. – М., 2007.; Алексеев П.В. Восточный текст в поэтике М.Лермонтова // Вестник Томского университета, 2013.

Adabiyot bo'yicha Nobel mukofotining birinchi rus laureati Ivan Alekseyevich Bunin ijodida islomiy mavzularga qiziqish Muqaddas kitob oyatlarini o'zining alohida asarlarida (epigraf sifatida) kiritganligi bilan cheklanmaydi. I.A.Bunin ijodidagi Sharq mavzusiga qiziqish⁶ nafaqat uning Qur'onni mutolaa qilgani, balki Qur'on g'oyalari badiiy anglagani va qayta anglagani bilan izohlanadi. Bu yozuvchi ijodidagi sharqona mazmunga ega asarlar falsafiy va estetik muammolarining dominant asosini belgilab, Sharq olamining o'zga bir makon sifatidagi badiiy shartliligi nuqtayi nazaridan ham, bu dunyoning "his etilish" darajasi va asosiy aksiologik qadriyatlarni chuqur anglash nuqtayi nazaridan ham ko'plab tadqiqotlar obyekti⁷ bo'lib kelgan.

Qur'on va uning rus adabiyotiga ta'sirini, uning strukturaviy-tipologik darajadagi tasnifi masalalariga bag'ishlangan ko'plab ishlarni o'rganish, madaniyatlararo o'zaro ta'sirlarning alohida ahamiyati va rolini ajratib ko'rsatish mazkur muammoni hal qilish nuqtayi nazaridan Muqaddas kitoblarni o'rganishning nazariy imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Bu mavzu ushbu muammoning kengligi va ahamiyati jihatidan zamonaviy adabiyotshunoslik fanida alohida o'rin tutadi. Bu borada rus va o'zbek adabiyotshunosligida olib borilgan ko'p sonli tadqiqotlar ushbu fikrni tasdiqlaydi⁸.

Rus adabiyotini sharqona ta'sirlar hisobiga badiiy-estetik boyitish masalalarini hal qilishga konseptual yondashuv o'zbek adabiyotshunoslari: P.Tartakovskiy, T.Lobanova, P.Mirza-Axmedova, M.Rasuliy, I.Temkina, A.Davshan, M.Sharafutdinova, N.Petruxinalarning ishlarida taqdim etilgan⁹. O'rta Osiyoda sharqona motivlar va

⁶ Тартаковский П.И. Русская советская поэзия 20-х начала 30-х годов и художественное наследие народов Востока. – Ташкент: ФАН, 1977.; Мирза-Авакян М. Работа И.А.Бунина над темой Востока // Творчество писателя и литературный процесс: Межвуз. сборник науч. трудов / Иванов, гос. ун-т; Отв. ред. П.В. Куприяновский. – Иваново, 1981; Долгополов Л.К. Судьба Бунина // Долгополов Л.К. На рубеже веков: О русской литературе конца XIX- начала XX века. – Л.: Советский писатель, 1985.; Мальцев Ю.В. Иван Бунин: 1870 -1953. - [Frankfurt/Main; М.]: Посев, 1994; Айхенвальд Ю.И. Иван Бунин // Айхенвальд Ю.И. Силуэты русских писателей: в 2 т. – М.: Терра, 1998. – Т. 2.; Чебоненко О.С. Восток в художественном сознании Бунина / Автореф. диссерт. канд. фил. наук. – Иркутск, 2004. <http://dlib.rsl.ru>; Ковалёва Т.Н. Образ Востока в «путевых поэмах» И.А.Бунина «Тень Птицы» // Евразийская лингвокультурная парадигма и процессы глобализации: история и современность. Материалы II Международной научной конференции. – Пятигорск: Изд-во ПГЛУ, 2011.; Двинятина Т.М. Поэзия И.А.Бунина: Эволюция. Поэтика. Текстология. Диссерт.на соиск. . . докт. фил. наук. – СПб, 2015.

⁷ Тартаковский П.И. Русская советская поэзия 20-х начала 30-х годов и художественное наследие народов Востока. – Ташкент: ФАН, 1977. – 333 с. Двинятина Т.М. Комментарии // Бунин И.А. Стихотворения: В 2 т. Т. 1 / Вступ. статья, сост., подг. текста, примеч. Т.М.Двинятиной. – СПб.: Издательство Пушкинского Дома, Вита Нова, 2014. С. 439–533; Джаннат С.М. «И восстанет Ислам!» Бунин и Ислам // Издательский дом «Медина» [Сайт]. URL: http://www.idmedina.ru/books/history_culture/mavlid/2/bunin.htm; Свет В.Е. Вещный мир как элемент восточной среды в ориентальной поэзии Бунина // Взаимовлияние и преемственность литература: Сб. науч. тр. / Ташк. гос. пед. ин-т им. Низами [Отв. ред. Е.А.Фомина]. – Ташкент: Ташк. ГПИ, 1988. С. 104–114.

⁸ Алексеев М.П. Русско-английские литературные связи. – М.: Наука, 1982; Он же. Международные связи русской литературы. – М.; Л.: Наука, 1963; Брагинский И.С. Проблемы востоковедения. – М.: Наука, 1974; Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1978; Конрад Н.И. Запад и Восток: статьи. – М.: Наука, 1978; Неупокоева И.Г. История всемирной литературы: проблемы системного и сравнительного анализа. – М.: Наука, 1976; Взаимосвязи и взаимодействия национальных литератур. – М.: Наука, 1961; Взаимосвязи литератур Востока и Запада. – М.: Наука, 1961; и др.; Каганович С.Л. Некоторые особенности русской ориентальной поэзии первой трети XIX века: (формирование стилевой традиции) // Русская литература и Восток: (особенности художественной ориенталистики XIX–XX вв.). – Ташкент: Фан, 1988; «Восточный романтизм» и русская романтическая поэзия // Контекст-1982: Литературно-теоретические исследования. – М.: Худож. лит., 1983; Она же. Концепция Востока в эстетике романтизма и «восточный стиль» русской поэзии. – Ташкент, 1978; Она же. Русский романтизм и Восток. – Ташкент: Фан, 1984; Брагинский И.С. Заметки о западно-восточном синтезе в лирике Пушкина // Народы Азии и Африки. 1965. № 4. С. 117–126; 1966. № 4. С. 40-146.

⁹ Каранг: Средняя Азия в творчестве русских советских писателей. – Ташкент, 1977; Восток в русской советской литературе 20-40-х годов. – Т., 1979; Русская литература и Восток. – Т., 1988; Мирза-Ахмедова П. Очерки идейно-художественных исканий Л.Толстого. – Т., 1990; Темкина И. Проблема изображения характера в русской советской прозе о Востоке. – Т., 1985; Тартаковский П. Свет вечерний шафранного края (Средняя Азия в жизни и

sharqshunoslik mavzusining rivojlanish tendensiyalari P.Tartakovskiy, S.Koganovich, L.Tartakovskaya, G.Soronqulov, N.Xolmuxamedova, B.Raxmanov va boshqa mualliflar monografiyalari va maqolalarida kuzatilgan¹⁰.

Rus adabiyotida Sharq oriyentalizmi muammolari, madaniyatlarning o‘zaro ta’siri muammolarini o‘rganishning nazariy jihatlarini tadqiqotchilarning doimiy diqqat-e’tibori obyektiga aylanib bormoqda. Buni V.M.Jirmunskiy, B.M.Tomashevskiy, P.I.Tartakovskiy, M.P.Alekseyev, S.L.Koganovich va boshqalarning asosiy monografik tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Rus adabiyotidagi qur’oniy motivlarni tushunishda tipologiya va sharqona kodlarni aniqlash muammolariga qiziqish kuchayganligining dalili sifatida K.I.Kashtaleva, N.I.Konrad, M.L. Nolman, X.G.Korogli, V.N.Eberman, N.B.Kameneva, T.M.Dvinyatina, T.M.Golts, L.Samedova va boshqalarning izlanishlarini ko‘rsatish mumkin. G‘arbiy Yevropa adabiyotshunosligida mental kodlar va mifologemalarning shakllanish muammolari, madaniyatlararo kommunikatsiya va o‘zaro ta’sirlar rivojlanishi masalalari ham E.V.Said (AQSh), A.Abdel-Malik (Misr), Nozim Mejid ad-Deyraviy; E.Karimi Riabi, M.Yahyapur (Eron), S.Fomichev, S.Shvartsband (Isroil) va boshqalarning bir qator ishlarida ma’lum darajada yoritilgan¹¹. Qur’onning ma’no- mazmuni va uning rus adabiyotiga ta’siriga, aniqrog‘i, buyuk rus yozuvchilari tomonidan Muqaddas kitob matnini boricha va uning alohida, muhimroq faktlarini badiiy idrok kontekstida talqin va tafsir qilish masalasiga prinsipial yondashuvni ham ta’kidlab o‘tmaslik mumkin emas. I.Yu.Krachkovskiy, I.M.Filshtinskiy, I.Sh.Shifman, Makarem Al-Gamriy kabi islomshunos olimlar ham badiiy to‘qimaning “qayta yaratish” funksiyalariga e’tibor qaratgan holda badiiy asarlarda qur’oniy motivlar va voqealarni haqqoniy ifodalash zarurligiga urg‘u berishgan. Muqaddas kitobning tarjimalari, Qur’oni Karim matni muqaddimalari va xotimalarining variantlari mavjudligi uni turli ma’nolarda o‘qish mumkinligi, uning

творчестве С. Есенина). – Т., 1981; Он же. Русские поэты и Восток. Бунин. Хлебников. Есенин. – Т., 1986; Он же. Социально-эстетический опыт народов Востока и поэзия В. Хлебникова. 1900-1910-е годы. – Т., 1987; Он же. Поэзия Хлебникова и Восток. 1917-1922. – Т., 1992.; Шарафутдинова М.О. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. – Автореф...докт. филол. наук. – Т., 2010.; Давшан А.Н. Азия в русской литературе XX века. – Т., 2011; Петрухина Н.М. Диалог культур: Россия-Запад-Восток. Материалы Международной научно-практической конференции «Славянская культура: истоки, традиции, взаимодействие. – М., 2009. и др.

¹⁰ Тартаковский П.И. Русская советская поэзия 20-х начала 30-х годов и художественное наследие народов Востока. – Ташкент: ФАН, 1977. – 333 с.; Свет В.Е. Вещный мир как элемент восточной среды в ориентальной поэзии Бунина // Взаимовлияние и преемственность литература: Сб. науч. тр. / Ташк. гос. пед. ин-т им. Низами; [Отв. ред. Е. А. Фомина]. – Ташкент: Ташк. ГПИ, 1988.; Тартаковская Л.А. Веневитинов: Личность. Мироззрение. Творчество. – Ташкент: Фан, 1974.; Коганович С.Л. Некоторые особенности русской ориентальной поэзии первой трети XIX века: (формирование стилевой традиции) // Русская литература и Восток: (особенности художественной ориенталистики XIX–XX вв.). – Ташкент: Фан, 1988; Она же. Русский романтизм и Восток. – Ташкент: Фан, 1984.; Холмухамедова Н.Н. Ориентализм раннего А.И.Полежаева: (к проблеме русско-таджикских литературных связей) // Изв. АН Тадж. ССР. Отд-ние обществ. наук. 1984. № 2.; Шейман Л.А., Соронкулов Г.У. Пушкин и его современники: Восток – Запад: очерки. – Бишкек, 2000.; Рахманов Б.Р. Персидско-таджикская литература в контексте русско-восточных литературных связей первой трети XIX века. – Автореф...докт. филол. наук. – Душанбе, 2018.

¹¹ Саид Э.В. Ориентализм: западные концепции Востока. – СПб: Русский мир, 2006; Абдель-Малик А. Кризис ориентализма // Диоген, 1963, №44.; Карими-Риаби Э. Диалог культур и цивилизаций. – М., 2011.; Карими-Мотаххар Дж. Александр Пушкин и мир Востока. – Тегеран: Ин-т гуманитарных и культурных исслед., 2012.; Яхьяпур М. Иван Бунин и мир Востока. – Тегеран: Изд-во Тегеранск. ун-та, 2007; Фомичев С.А. Поэзия Пушкина: творческая эволюция. – Л.: Наука, 1986.; Шварцбанд С. Пушкин: правда вымысла. –Иерусалим, 2012; Коран и Библия в творчестве А.С.Пушкина / под ред. Д.Сегала и С.Шварцбанда; Центр изучения славянских языков и литературы при Еврейском ун-те. – Иерусалим, 2000.

variativligi va, hattoki, asosiy mazmun tafsirlarida munozarali holatlar yuzaga kelishidan dalolatdir. Bugungi kunga qadar Qur'onning rus tiliga 17 ta tarjimasi ma'lum bo'lib, ularning har birida tarjimonlar Muqaddas kitobning g'oyalari va ma'nolarini imkon qadar to'liqroq saqlab qolishga harakat qilishgan. Deyarli barcha tarjimonlar Alloh tomonidan nozil qilingan Qur'onning chuqur ma'nolarini tushunish qiyinligi haqida fikr bildirishgan, aynan shuning uchun ham arab tilida yaratilgan Muqaddas kitob shunchalik ko'p yashirin, sirli va turli mazmun-mohiyatga ega ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Qiyosiy tahlil metodologiyasi", "Jahon adabiyotida adabiy qarash, janr rivojlanishi va uslublar xilma-xilligi" mavzulari doirasida bajarilgan va Navoiy davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari mavzuiy rejasiga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi rus adabiyotida Qur'on motivlari spetsifikasini madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida anglash va aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

madaniyatlararo kommunikatsiya muammo maydonining murakkab tizimini taqdim qilish va o'rganish;

madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini tushunishda adabiyotlarning o'zaro ta'sir jarayoni spetsifikasini aniqlash va belgilash;

rus adabiyotida Qur'onni o'rganish va o'zlashtirish tarixi xususiyatlarini ochib berish;

A.S.Pushkinning "Qur'onga tatabbu'lar"i madaniyatlari sivilizatsion dialogida Qur'onning aksiologik jihatlarini tahlil qilish; A.Pushkin ijodidagi Injil va Qur'on motivlari sintezida sufizm g'oyalarini aks ettirish; Pushkin davri shoirlari lirikasidagi Qur'on qissalari va obrazlarining o'zaro ta'sir jarayonini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish;

taqdir mifologemasini o'zlashtirish tizimida muallif faolligi va uning namoyon bo'lish shakllari hamda M.Lermontovning sharqona kontinuumida uning namoyon bo'lish darajasini aniqlash; Lermontovning sharqona kodlarini ularning eksplitsit tasvirida ko'rib chiqish;

I.Bunin ijodiy merosidagi Sharq arab ma'naviy madaniyati madaniy-ramziy xilma-xilligining semiotik mohiyatini va qur'oniy motivlarning eksplitsit timsoli xususiyatlarini o'rganish; I.Bunin ijodidagi Sharqni kompleks tahlil qilish va implitsit qur'oniy meros konseptlari konsepsiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida musulmonlar Muqaddas kitobi – Qur'oni Karimning ma'no nozikliklarini badiiy aks ettirgan XIX va XX asr rus adabiyoti badiiy matnlari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Sharq va G'arb madaniyatlararo muloqoti tizimida Qur'on motivlari va obrazlari orqali muqaddas tushunchalarning rus adabiyoti asarlarida umuminsoniy qadriyatlar sifatida qayta anglashinuvi spetsifik kodining yuzaga kelishi va madaniyatlararo ushbu jarayondagi o'zaro ta'siri spetsifikasi tadqiqi olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida quyidagilar asosiy tahlil usullari sifatida olingan: tahlil qilinayotgan muammo bo'yicha Qur'on obrazlari va sujetlaridan

foydalanish eksplitsitligini ochib berishga imkon beruvchi qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va germenevtik usullar; A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, I.A.Bunin ijodida taqdim etilgan Qur'oni Karim suralari va oyatlarini tasvirlash imkonini beruvchi strukturaviy-semiotik usul.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

rus adabiyoti misolida madaniyatlararo kommunikatsiyaning muhim hodisasi bo'lgan Qur'on motivlarining adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan muammoli yondashuv paradigmasi asoslangan;

Qur'on va rus adabiyoti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni anglash sharti sifatida madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini tadqiq qilishning nazariy-metodologik jihatlarini aniqlash va tahlil qilish orqali rus adabiyotida Qur'onning o'zlashtirilish tarixi ketma-ketligi va madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini tushunishda adabiyotga oid badiiy matnlarning o'zaro parallel ta'siri spetsifikasi dalillangan;

rus yozuvchilari ijodidagi qur'oniy kod va motivlar, ular ijodining Sharq (musulmon) an'analari, rus adabiyoti retseptiv estetikasida madaniy parametrlarni ikki hissa oshirish nuqtayi nazaridan Sharqni badiiy idrok etishda binar yondashuv, yangi poetik makon paydo bo'lishi, mentalitetning dunyoga sharqona nigoh bilan qarash orqali namoyon bo'lishi kabi dominantlar asoslangan;

Pushkin ijodidagi qur'oniy motivlarning aksiologiyasi tadqiq qilingan; shoirning rus oriyentalizmidagi retseptiv jihati tahlil qilingan; Pushkin ijodida Injil va Qur'on motivlari sintezi nuqtayi nazaridan sufizm g'oyalari reprezentatsiyasi dalillangan; Pushkin davri shoirlari lirikasidagi Qur'on qissalari va obrazlarining o'zaro ta'sir jarayoni isbotlangan;

taqdir mifologemasini o'zlashtirish tizimida, jumladan, M.Lermontov oriyental kontinuumida, muallif faolligi va uning namoyon bo'lish darajasiga aniqlik kiritilgan; shoirning sharqona kodlari ularning eksplitsit tasviri asosida dalillangan;

I.Bunin ijodiy merosidagi Sharq arab ma'naviy madaniyati madaniy-ramziy xilma-xilligining semiotik mohiyati, "Islom" siklida qur'oniy motivlarning eksplitsit timsoli xususiyatlarini ochib berish orqali I.Bunin ijodida Sharqqa kompleks yondashuv hamda implitsit qur'oniy me'ros konseptlari isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari badiiy matn tahlili metodologiyasi, Qur'on motivlari va rus adabiyotining o'zaro ta'siri tipologik dominantalarini aniqlashga muayyan darajada hissa qo'shadi;

tadqiqot natijalari madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida qur'oniy motivlar tabiatini tushunish, ularning tashkil bo'lishi va amal qilishi bilan bog'liq muammolarning amaliy yechimi va ularning yaratilish hamda amal qilish kognitiv mexanizmlari haqidagi nazariy tasavvurlarni kengaytiradi va to'ldiradi;

turli qutbli olamlarni qiyosiy-tarixiy va germenevtik tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan usullar kompleksi rus adabiyoti badiiy matnlari materiallari asosida adabiy va mental tuzilmalar o'zaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini yanada ko'proq tadqiq qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etgan;

sharqona motivlarning o'zaro munosabati va rus adabiyotiga ta'sir ko'rsatish yo'llarini ko'p bosqichli talqin qilish va sharhlash asoslarini tadqiq qilish adabiyotshunoslik innovatsiyalaridan foydalanishning estetik qimmatini va kreativ

xususiyatlarini aniqlab, rus adabiyotining hozirgi rivojlanish bosqichidagi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam bergan;

insoniyatning Muqaddas kitoblarini o'rganish zarurati mezonlarini aniqlash va tahlil qilish Pushkin, Lermontov, Bunin ijodidagi stilistik jihatdan o'zgartirilgan retsepsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan ustuvor motivlar sifatida materialdan foydalanish samaradorligini ta'minlagan;

tadqiqot natijalari rus adabiyotidagi qur'oniy motivlarni o'rganishga yaxlit yondashuvni qo'llash istiqbollari, sharqona retseptiv sujetlarni gavdalantirish va bu tushunchalarni rus adabiyoti aksiologik mohiyatiga kiritishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab bergan;

rus adabiyotining badiiy tabiati va badiiy matnning namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganish uchun qiyosiy-tipologik tahlilning kompleks metodikasini qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot davomida ishlab chiqilgan tavsiyalar XIX–XX asrlar rus adabiyotidagi qur'oniy motivlar muammolari bo'yicha, ularni kross-madaniy anglagan holda, maxsus kurslar ishlab chiqish uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda ilmiy yondashuvlar, tahlil usullari, umumilmiy nazariy qoidalar va umume'tirof etilgan adabiyotshunoslik konsepsiyalaridan foydalanilganligi, katta hajmdagi adabiy material tahlil qilinganligi, o'tkazilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishining nazariy qoidalariga muvofiqligi, tadqiqot asosiy natijalarini chop etish uchun Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda, respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar to'plamlarida maqolalar nashr qilinganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati rus adabiyotida qur'oniy motivlar paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlarini tizimlashtirish bilan adabiyotlar o'zaro ta'sir jarayonlarining kompleks adabiy tabiatini ochib berish va tasvirlashga imkon beradigan ko'pqirrali adabiyotshunoslik tushunchasi sifatida madaniyatlararo kommunikatsiyaning yangi yo'nalishi – madaniyatlar dialogini qurishni rivojlantirishga muayyan hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adabiyotlar o'zaro ta'siri va madaniyatlararo kommunikatsiya muammolari bo'yicha yangi o'quv materiallarini ishlab chiqish zarurati bilan, tadqiqot natijalari va materiallaridan oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida XIX–XX asrlar rus adabiyoti, adabiyotshunoslik asoslari, badiiy matnni tahlil qilish va sharhlash, madaniyatshunoslik bo'yicha ma'ruzalar va seminar mashg'ulotlari ishlab chiqish va o'tkazish, rus adabiyotining sharqona motivlari bo'yicha maxsus kurslarni o'qitish, darslik va o'quv qo'llanmalarini yozish, shuningdek, maxsus adabiyotshunoslik lug'atlari va ma'lumotnomalarini tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rus adabiyotidagi qur'oniy motivlarni madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida tadqiq qilish jarayonida olingan nazariy takliflar va amaliy natijalar asosida:

rus adabiyoti misolida madaniyatlararo kommunikatsiyaning muhim hodisasi bo'lgan Qur'on motivlarining adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan muammoli yondasuv

paradigmasiga oid xulosalardan F-1-06 raqamli “Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida Sharq-G‘arb adabiy an‘analari sintezi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 7-avgustdagi 89-02-167-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu xulosalar milliy adabiyotshunoslikdagi badiiy birliklarni chuqurroq tahlil qilish, rus adabiyotida sharqona matn rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularni qiyosiy-tipologik yondashuv nuqtayi nazaridan maxsus tadqiq qilishga xizmat qilgan;

Qur‘on va rus adabiyoti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni anglash sharti sifatida madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini tadqiq qilishning nazariy-metodologik jihatlarini aniqlash va tahlil qilish orqali rus adabiyotida Qur‘onning o‘zlashtirilish tarixi ketma-ketligi va madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini tushinishda adabiyotga oid badiiy matnlarning o‘zaro parallel ta‘siri spetsifikasiga oid xulosalardan PF-201912258 – “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 12-yanvardagi 01/3-49-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur loyihada bir qator ilmiy-uslubiy qoidalardan foydalanilgan va, keyinchalik, ularni oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayoni amaliyotiga joriy etishga xizmat qilgan;

rus yozuvchilari ijodidagi qur‘oniy kod va motivlar, ular ijodining Sharq (musulmon) an‘analari, rus adabiyoti retseptiv estetikasida madaniy parametrlarni ikki hissa oshirish nuqtayi nazaridan Sharqni badiiy idrok etishda binar yondashuv, yangi poetik makon paydo bo‘lishi, mentalitetning dunyoga sharqona nigoh bilan qarash orqali namoyon bo‘lishi kabi dominantlari borasidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasining Navoiy viloyati “Durдона” ayollar va bolalar psixologik markazining 46-09/64-sonli “Mustahkam farovon oiladan gullab-yashnayotgan davlat sari” nomli loyihasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan. Natijada, mazkur xulosa va tavsiyalar markaz tomonidan viloyatlarda amalga oshirilayotgan oilada muloqot va o‘zaro ijobiy ta‘sir, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, tarixiy-madaniy mulohazalar, bag‘rikenglik va yoshlarni tarbiyalash namunalari ishlab chiqish bilan bog‘liq faoliyat samaradorligini oshirishga yordam bergan;

Pushkin ijodidagi qur‘oniy motivlarning aksiologiyasi, shoirning rus oriyentalizmidagi retseptiv jihati, Pushkin ijodida Injil va Qur‘on motivlari sintezi nuqtayi nazaridan sufizm g‘oyalari reprezentatsiyasi, Pushkin davri shoirlari lirikasidagi Qur‘on qissalari va obrazlarining o‘zaro ta‘sir jarayoniga doir xulosalar Polotsk davlat universiteti (Belarussiya Respublikasi) bilan hamkorlikda pedagogika OTMlarda XIX asr rus adabiyoti tarixi bo‘yicha “A.S.Pushkin va M.Y.Lermontov ijodida Sharq she‘riyatining retseptiv estetikasi va an‘analari” amaliy loyihasida taqdim etilib, aprobatsiyadan o‘tkazilgan (Polotsk davlat universitetining 2021-yil 19-noyabrdagi 4-son dalolatnomasi). Natijada, uni amalga oshirish doirasida Pushkin va Lermontov ijodining sharqona tarkibli nazariy va amaliy ma‘lumotlari, rus adabiyotida qur‘oniy motivlarning nazariy va amaliy muammolari, adabiyotshunoslikdagi sharqshunoslik yo‘nalishlarini o‘rganish strategiyasini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan keng va samarali foydalanishga erishilgan;

taqdir mifologemasini o'zlashtirish tizimida, jumladan, M.Lermontov oriental kontinuumida, muallif faolligi va uning namoyon bo'lish darajasi, shoirning sharqona kodlari, ularning eksplitsit tasviriga oid xulosalar hamda tadqiqot materiallaridan O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi Navoiy viloyat kengashi tomonidan O'zbekiston xalqlari madaniyati va diniga nisbatan bag'rikenglikni, umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga chuqur hurmat tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirishda foydalanilgan va joriy etilgan (O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi Navoiy viloyati kengashining 2021-yil 24-dekabrda 87-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'tkazilgan ommaviy tadbirlar sifati oshgan, shuningdek, madaniyatlararo o'zaro munosabatlarda barqarorlik va bag'rikenglik komponentlarining yanada mustahkamlanishiga yordam bergan;

I. Bunin ijodiy merosidagi Sharq arab ma'naviy madaniyati madaniy-ramziy xilma-xilligining semiotik mohiyati, "Islom" siklida qur'oniy motivlarning eksplitsit timsoli xususiyatlarini ochib berish orqali I.Bunin ijodida Sharqqa kompleks yondashuv hamda implitsit qur'oniy me'ros konseptlari borasidagi xulosalardan yoshlarda bag'rikenglik va o'zaro hurmatni tarbiyalash orqali milliy g'urur va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2022-yil 06-yanvardagi 02/05-son ma'lumotnomasi). Natijada, "O'zbekiston Respublikasining madaniyat va ta'limni takomillashtirish bo'yicha beshta muhim tashabbusi" doirasida Navoiy viloyati hokimligi tomonidan o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar sifati oshgan;

rus va o'zbek adabiyoti qiyosiy tahlili, rus adabiyotidagi qur'oniy motivlarni o'rganishga yaxlit yondashuv istiqbollari, sharqona retseptiv sujetlarni gavdalantirish xususiyatlariga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasining "Navoiy" telekanalida "Assalom, yangi kun", "Ta'lim islohoti" va "Diyor-24" teleko'rsatuvlarini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi "Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi" Davlat unitar korxonasi 2021-yil 14-dekabrda 01-02/147-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya tadqiqotining ilmiy natijalarini joriy etish orqali teleko'rsatuvlar madaniy-ma'rifiy samaradorligini ta'minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika konferensiyalarida taqdim qilinib, ilmiy ma'ruzalar shaklida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta ilmiy maqola, shulardan 9 tasi respublika jurnallarida, 8 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 280 bet bosma matnni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi taqdim etilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, asosiy tadqiqot usullari ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari belgilangan, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyada qo‘yilgan muammolarni hal qilish qur‘oniy motivlar va ularning madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida rus adabiyotiga ta‘sirini anglashdek murakkab masalaning ayrim asosiy nazariy jihatlarini ko‘rib chiqishni taqozo qildi. Dissertatsiyaning **“Qur‘oniy motivlar: madaniyatlararo o‘zaro ta‘sir va madaniyatlararo kommunikatsiya”** deb nomlangan birinchi bobi aynan mana shu masalaga bag‘ishlangan bo‘lib, unda madaniyatlararo kommunikatsiya, uning amalda ishlash muammolari asosiy jihatlarini tahlil qilishga e‘tibor qaratilgan, Sharq va G‘arbning o‘zaro ta‘sirini tushunish sharti sifatida madaniyatlararo muloqotga kirishishning muhim tarkibiy qismlari va rivojlanish istiqbollari taqdim etilgan, boshlang‘ich nazariy qoidalar aniqlangan va madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini tushunishda qur‘oniy motivlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan, Qur‘oni Karimni rus tarixiy-adabiy jarayon kontekstida o‘rganishning ahamiyati taqdim etilgan¹².

“Madaniyatlararo kommunikatsiyaning muammoli maydoni va uning rivojlanish istiqbollari” nomli 1.1. paragrafda madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini tadqiq qilishning asosiy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi faoliyatining muammoli maydoni xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalalarini hal qilishga qaratilgani bois bugungi kunda u ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarning markaziga aylanib borayotgani ko‘rsatilgan. Madaniyatlararo kommunikatsiya muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar bir vaqtning o‘zida bir nechta: kommunikativistika, antropologiya, etno-, sotsio- va psixolingvistika, semiotika, madaniy psixologiya, lingvomadaniyatshunoslik, lingvodidaktika, germenevtika, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarning o‘zaro ta‘sirini qamrab oladi.

¹² Гольц Т.М. Из истории русского художественного «ориентализма» 20-30-х гг. XIX в.: Д.П.Ознобишин поэт-восточник (1804–1877) // Изв. АН Тадж. ССР. Отд-ние обществ. наук. 1975. – № 3. – С. 17-18. Брагинский И.С. Проблемы востоковедения. – М.: Наука, 1974.; Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1978.; Конрад Н.И. Запад и Восток: статьи. – М.: Наука, 1978.; Неупокоева И.Г. История всемирной литературы: проблемы системного и сравнительного анализа. – М.: Наука, 1976.; Взаимосвязи и взаимодействия национальных литератур. – М.: Наука, 1961.; Взаимосвязи литератур Востока и Запада. – М.: Наука, 1961; и др.; Каганович С.Л. Некоторые особенности русской ориентальной поэзии первой трети XIX века: (формирование стилевой традиции) // Русская литература и Восток: (особенности художественной ориенталистики XIX–XX вв.). – Ташкент: Фан, 1988; «Восточный романтизм» и русская романтическая поэзия // Контекст-1982: Литературно-теоретические исследования. – М.: Худож. лит., 1983.; Ениколопов И.К. Грибоедов и Восток. 2-е изд., перераб. – Ереван: Айастан, 1974.; Холмухамедова Н.Н. Ориентализм раннего А.И. Полежаева: (к проблеме русско-таджикских литературных связей) // Изв. АН Тадж. ССР. Отд-ние обществ. наук. 1984. № 2. – С. 74-80; Коран и Библия в творчестве А.С. Пушкина / под ред. Д.Сегала и С.Шварцбанда; Центр изучения славянских языков и литератур при Еврейском ун-те. – Иерусалим, 2000.

Madaniy muloqot asosida xalqning madaniy qadriyatlari va normalari, uning urf-odatlar va an'analari, individualligi va insoniyatning boshqa vakillari bilan muloqot qilish malakasi yotadi. Muloqot qilish orqali inson uni o'rab turgan olamni tushuna oladi, boshqa odamlarning harakatlari bilan munosabatlarini quradi. Va, albatta, kishilik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq ochib berishga yordam beradigan shaxslararo, guruhlararo va madaniyatlararo aloqa turlari ushbu jamiyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo muloqot avvalo boshqa odamlar bilan muloqotda namoyon bo'ladi. Bunda insonning individual xulq-atvori, boshqa mentalitetlarning madaniy me'yorlari va qadriyatlariga hurmati ustuvor bo'ladi. Boshqa madaniyat vakillarining me'yorlariga nisbatan bag'rikenglik aynan shunda namoyon bo'ladi.

“Madaniyatlararo muloqot”ning shakllanishiga olib kelgan bu munosabatlar “ikki yoki undan ortiq madaniyatlar va ularning faoliyati mahsullari o'rtasidagi turli shakllarda amalga oshirilgan almashinuv”¹³ degan ma'noni anglata boshladi. D.V.Gudkov madaniyatlararo muloqotni “turli lingvomadaniy jamoalarga mansub lingvistik shaxslarning muloqoti”¹⁴ deb tariflaydi.

V. fon Gumboldt¹⁵ madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasiga katta hissa qo'shgan bo'lib, u muloqot rivojlanish xususiyatlarini ikki yo'nalish: tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik birikuvida ko'rib chiqdi. Olim til va tafakkurning o'zaro ta'siri haqida gapirar ekan, “tillarning xilma-xilligi bizga dunyoning boyligi va unda bilib olayotgan narsalarimizning rang-barangligini ochib beradi”¹⁶, deya ta'kidlaydi. Madaniyat va adabiyotning o'zaro ta'siri bilan bog'liq g'oyalar rivojlanishiga N.A.Berdyayev, A.A.Potebnya, M.M.Baxtin, Y.M.Lotman, L.S.Vigotskiy, G.X.Gadamer, A.A.Leontev va boshqalarning asarlari¹⁷ yordam bergan. Madaniyatlararo kommunikatsiya muammolari bo'yicha deyarli barcha tadqiqotlarda “madaniyatlar dialogi” tushunchasining ahamiyati ifodalanib, unda voqelikning ko'plab muammolariga yechim topilgan. Ushbu hodisaning yetarlicha jiddiy tahlili V.S.Biblerning¹⁸ ilmiy tadqiqotlarida amalga oshirilgan bo'lib, u ularda “yaqinlashib kelayotgan yangi madaniyat umumiy sotsiumi, madaniyatning kuch maydonida odamlarning erkin muloqot qilish shakli, madaniyatlar dialogi”¹⁹ haqida iddao qiladi. Yevropa kommunikativistika maktabi madaniyatlar o'zaro ta'sirining turli jihatlarini tahlil qilib, ularni uchta: monomadaniyat, krossmadaniyat va madaniyatlararo nuqtayi

¹³ Актуальные проблемы межкультурной коммуникации. //https: articlekz.com.

¹⁴ Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М., 2003. –С.51.

¹⁵ Гумбольдт Вильгельм фон. Язык и философия культуры / Общ. ред. А.В.Гулыги и Г.В.Рашишвили. – М.: Прогресс, 1985.

¹⁶ Гумбольдт Вильгельм фон. Язык и философия культуры / Общ. ред. А.В.Гулыги и Г.В.Рашишвили. – М.: Прогресс, 1985. – С.352.

¹⁷ Потебня А.А. Мысль и язык // Русская словесность: Антология. - М.: Academia, 1997.; Бердяев Н.А. Философия свободного духа. – М., 1994; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Художественная лит-ра, 1979.; Лихачев Д.С. Культура как целостная система // Новый мир. – 1994. – № 8. – С. 3-8; Лотман Ю.М. Семиотика культуры и понятие текста // Русская словесность: антология. – М.: Academia, 1997. Выготский Л.С. Мышление и речь //Собрание сочинений в 6-ти т. /Под ред. А.М.Матюшкина. – Т. 3. – М.: Педагогика, 1982.; Гадамер Г.Х. Истина и метод: Основы философской герменевтики / Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1988.; Леонтьев А.А. Национальные особенности коммуникации как междисциплинарная проблема // Национально-культурная специфика речевого поведения. – М., 1977.

¹⁸ Библиер В.С. От наукоучения к логике культуры: два философских введения в XXI век. – М.: Политиздат, 1990.

¹⁹ Библиер В.С. Культура. Диалог культур (опыт определения) // Вопросы философии, 1989. – № 6. – С.31-43.

nazardan ko‘rib chiqish zarurligi haqida yozadi va ularning har birida tadqiqot uchun o‘z rakurslarini ajratib ko‘rsatadi. Bu fan negizi haqida to‘xtalangan aksariyat tadqiqotlar umumnazariy xarakterga ega, turli lingvomadaniyatlarning o‘zaro munosabatlari va aloqalariga bag‘ishlangan, insoniyatning u yoki bu madaniyati o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib beruvchi ishlar deyarli mavjud emas. Madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida rus adabiyotidagi qur‘oniy motivlarning o‘ziga xos xususiyatlariga oid asar, bizning nazarimizda, rus adabiyotining o‘zga madaniy makonni idrok etish haqida tasavvur berishi, mumtoz rus adabiyotida belgilangan makoniy o‘zaro munosabatlarning zaruriy mifologemalarini qabul qilishga yordam beruvchi mezonlarni ishlab chiqishi, Sharq milliy qur‘oniy madaniyatining o‘ziga xosligini tushuntirib berishi va insoniyatning madaniy o‘zaro munosabatlari kodlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishi mumkin.

“Madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini tushunishda qur‘oniy motivlar rivojlanishining o‘ziga xosligi masalalari” nomli 1.2. paragrafda tadqiq qilinayotgan yo‘nalishda rus adabiyotining qur‘oniy motivlar muammosini nazariy anglash taklif etilgan.

XIX–XX asrlar rus yozuvchilari va shoirlari ijodida qur‘oniy motivlarning namoyon bo‘lish xususiyatlarini madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida o‘rganish asrlar davomida saqlanib kelgan Qur‘oni Karimning axborot va axloqiy obyektini ahamiyatini tushunishga rus madaniyatining qiziqishi darajasini ochib beradi. Tadqiqot konssetsiyasi shundan iboratki, Sharq va Rossiya mamlakatlari madaniyati va aloqalarining o‘zaro munosabat va ta‘sir darajasini aniqlash natijasida qur‘oniy motivlarni rus adabiyoti asarlarini tahlil qilishning murakkab tizimi bo‘lgan madaniyatlararo aloqa hodisasi sifatida o‘rganish mumkin bo‘ladi. Rus adabiyoti maxsus sivilizatsion tizim sifatida Sharq mamlakatlariga tegishli bo‘lib, Qur‘oni Karim ma‘naviy merosi bilan bir qatorda sharqona madaniyatni yaxlit holda integrativ his etishni taqozo qiladi. Qur‘oniy motivlarning rus adabiyotida namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish, Sharq va G‘arb madaniyatining sivilizatsiya turlarini solishtirish bilan qur‘oniy motivlarni madaniyatlararo kommunikatsiya hodisasi sifatida kognitiv tushunish ochib berilgan bo‘lib, bu esa tashqi (Qur‘on)dan ichki (Qur‘on haqiqatlarining ma‘nosi)gacha, yuzaki tafovutlarni anglashdan arab Sharqi madaniyatining mohiyatiga kirib borish va ular o‘rtasida birlashtiruvchi kuch – insoniy o‘zaro tushunishning asosiga aylanishi mumkin bo‘lgan teran xususiyatlarni izlashgacha bo‘lgan Pushkin, Lermontov, Bunin poetik tafakkurining rivojlanish xususiyatlarini ko‘rsatib beradi. Shoirlar tomonidan Muqaddas kitob o‘qilishining alohida lahzalarini ochib berish jarayonida kuzatiladigan universallashtirish va individuallashtirish tendensiyalari madaniyatlararo kommunikatsiyaning, bir tomondan, ushbu madaniyatlarni chegaralovchi omil sifatida, boshqa tomondan esa, ularning yagona sivilizatsion butunlikka birlashishiga hissa qo‘shuvchi integratsion omil sifatida oldinga chiqishiga sabab bo‘ladi. Madaniyatlar o‘zaro ta‘sirning ana shu umumbashariy komponentlari madaniyatlararo kommunikatsiya regulativlari bo‘lib, bizning nuqtayi nazarimizda, madaniy parametrlarni ikki baravar oshirishning asosiy komponenti, kod, Qur‘oni Karim haqiqatlarining rus adabiyoti tomonidan o‘qilishi va o‘zlashtirilishida universalizatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

“Rus adabiyoti taraqqiyoti kontekstida Qur’oni Karimni idrok etishdagi tarixiy va adabiy jarayon” nomli 1.3. paragrafda rus-sharq aloqalari xususiyatlarining umumiy masalalari, sharqshunoslik muammolari, musulmonlarning bosh kitobi – Qur’oni Karimni idrok etish o‘rtasidagi bog‘liqliklar ko‘rib chiqilgan, musulmonlarning Muqaddas kitobini rus tiliga tarjima qilish bilan bog‘liq muhim muammo ochib berilgan. Paragrafda nafaqat muvaffaqiyatlar, balki zamonaviy hayot paradigmasining eng muhim tarkibiy qismi sifatida madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi va amaliyotini anglash istiqbollari ham qayd etilgan bo‘lib, bir tomondan, globallashtirish va integratsiya natijasi sifatida madaniyatlararo kommunikatsiya muammolari tahlil qilinsa, boshqa tomondan, Pushkin, Lermontov, Bunin kabi yozuvchilar ijodidagi sharqona muammolar va qur’oniy motivlarni anglashda boshlang‘ich nazariy pozitsiyalarni egallash imkonini beradigan muammolar aktuallashtirilgan. Qayd etilishicha, Qur’oni Karimning badiiy o‘ziga xosligini anglashning asosiy va muhim masalasi uning tarjimasidadir. Qur’on obyektining unikalligi, shakliy tuzilishi, maxsus kompozitsiya, yangi obrazli tushunchalar, tafakkurning o‘ziga xosligi uni rus tiliga o‘g‘irgan: P.Postnikov (1716), D.Kantemir (1722), M.Verevkin (1790), A.Kolmakov (1792), K.Nikolayev (1864), D.Boguslavskiy (1995), G.Sablukov (1878), I.Krachkovskiy (1921), V.Poroxova (1991), T.Shumovskiy (1995), M.Osmonov (1999), A.G‘ofurov (2000), Y.Quliyev (2002), B.Shidfar (2003) va boshqa ko‘plab mutarjim va mufasssirlar e’tiborini jalb qilgan. Qayd etilishicha, har bir mutarjim Muqaddas kitobni o‘zicha talqin qilgan: ayrimlari Qur’oni Karim ma’nolarini akademik tafsir qilishga moyil bo‘lsa, boshqalari esa o‘z qarashlarini birlashtirib, ularni nafaqat dindorlar, balki islomiy masalalarga qiziquvchilar orasida ham ommalashtirishga harakat qilishgan. Qur’oni Karim tarjimalari bo‘yicha dissertatsiya ishida keltirilgan ma’lumotlar ushbu jahon madaniy obyektining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rish imkonini beradi. Unda she’riy tuzilishiga ko‘ra inson hayotining axloqiy-ma’naviy, diniy, fuqaroviy, siyosiy va huquqiy normalari hamda buyruqlar, Parvardigor tomonidan kodlangan buyuk haqiqatlarning noyob to‘plami sifatida musulmonlar bosh va Muqaddas kitobi tavsifi keltirilgan. Qur’oni Karimning o‘ziga xosligi ta’kidlanib, unda muhim haqiqat va bilimlarning jamlangani, matn madaniyatining ekzotikligi va bemsilligi, arab tilining o‘ziga xosligi, obrazlarning unikalligi, tushuncha va rivoyatlarning teranligi qayd etilgan. Rus adabiyoti insoniyat madaniyatining ushbu noyob obyektida ustida ishlab, qur’oniy obraz va motivlarni o‘ziga xos tarzda talqin qiladi, bunda nafaqat o‘ziga bir madaniyatni, balki, birinchi navbatda, Qur’oni Karim materialini retseptiv idrok etishda o‘z mentaliteti manbasini tushunishga harakat qiladi. Pushkin, Lermontov va Bunin tomonidan Muqaddas kitobning ijodiy idrok etilishida Qur’oni Karim matnini badiiy asarga jalb qilish, rus madaniyatining muhim aksiologik jihatlarini tushunishda Qur’oni Karim haqiqatlarini retseptiv aks ettirish, Islom dini Muqaddas kitobining bir qator motivlari va obrazlarini hayotni tushunishning mental kodlarini ikki barobar oshirish prizmasi orqali transformatsiya qilish an’anasi mavjud. Qur’oni Karimning asosiy mavzulariga to‘xtalar ekan, ular, birinchi navbatda, ularga mentalitetlar qardoshligini his qilish, Qur’oni Karim poetikasiga xos janr va stilistik xususiyatlarni ko‘rish va ularni o‘z retsepsiyasida aks ettirish imkonini beradigan madaniyatlararo kommunikatsiyaning imaginativ jihatiga e’tibor qaratadilar.

Dissertatsiyaning “**A.S.Pushkin ijodiy merosida qur’oniylar jihatlarini**” deb nomlangan ikkinchi bobida A.S.Pushkinning “umumbashariy jonkuyarligi” xususiyatlari va uning sharqshunoslikka yondashuvlari, madaniyatlar sivilizatsion dialogida Qur’oni Karim aksiologik jihatlarining o‘zaro nisbati tadqiq qilingan, A.S.Pushkinning “Qur’onga tatabbu’lar”ida sikl va ifoda vositalarining subyektiv tashkil etilish xususiyatlari ochib berilgan, “Payg‘ambar” she’rida Injil va Qur’on motivlari eksplitsit-implitsit ko‘rinishlarining o‘ziga xos xususiyatlari sintez qilingan, Pushkin davri shoirlari lirikasidagi Qur’on rivoyatlari va obrazlari tahlil qilingan.

“**A.S.Pushkinning ijodiy idrokida Sharq konsepsiyasi**” nomli 2.1. paragrafda Pushkin ijodining sharqona tarkibi va bu muammo ustida ishlagan ko‘p sonli tadqiqotchilarning²⁰ ishlari tahlil qilingan. Paragrafda qayd etilishicha, A.S.Pushkin ijodida Sharq mavzusi shoirning vaqtinchalik “ishtiyoqi” natijasi emas, balki Rossiya ichida ham, undan tashqarida ham hayotning o‘zi taqozo qilgan tabiiy jarayon bo‘lgan. Shoirning Sharq mavzusiga murojaatida XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Yevropa madaniyati, jumladan, rus madaniyatining Sharqqa e’tibori kuchayganligi aks etgan. Rossiyada Sharqqa qiziqish ayniqsa XIX asr boshlarida kuchaydi. 1818-yil noyabr oyida Peterburgda Fanlar akademiyasining Osiyo muzeyi ochildi, u yerda arab, fors va turk qo‘lyozmalari saqlanib, bu rus sharqshunosligi rivoji uchun ishonchli asos bo‘ldi. Bu davlat siyosati bilan ham bog‘liq bo‘lib, diplomatlar, amaldorlar va tarjimonlar tayyorlash uchun Sharq tillari kafedrasini tashkil etish zarurati tug‘ilgan edi. Aynan shu davrda taniqli sharqshunos olimlar: K.Fren, A.Kazem-Bek, A.Boldirev, O.Senkovskiylarning faoliyati keng quloch yoydi. Lekin Sharq she’riyatiga qiziqishning ortishida romantizmga oid adabiy nazariyalarning tarqalishi muhim ahamiyat kasb etdi. Romantiklar “milliy madaniyatlar nazariyasini umuminsoniy madaniyat va jahon tarixining olg‘a qarab rivojlanishidagi o‘zaro bog‘liq bo‘g‘inlar sifatida”²¹ o‘zlashtirib, jiddiy ravishda qayta ko‘rib chiqdilar.

Olimlarning Pushkin Sharqiga bo‘lgan qiziqishi haqida gap ketganda, aytish mumkinki, bu muammo XIX asrdan buyon yetarli darajada ko‘p muhokama ostida bo‘lib kelgan. A.Pushkin ijodining taniqli tadqiqotchisi P.V.Annenkov shoirning “sharqona ijodi” bilan tanishar ekan, o‘shandayoq Qur’on misoli bir bayroqdirki, “uning ostida Pushkin o‘z shaxsiy diniy tuyg‘usini o‘tkazgan”ligini aytadi²². Bir necha yil o‘tgach, 1882-yilda Sankt-Peterburg universitetining rus og‘zaki va yozma adabiyoti

²⁰ Шварцбанд С. О первом примечании к «Подражаниям Корану» // Коран и Библия в творчестве Пушкина. – Иерусалим, 2000. – С.19.; Эткинд Е. Пушкинская «поэтика странного» // Коран и Библия в творчестве А.С.Пушкина. – Иерусалим, 2000. – С.53.; Фомичев С.А. «Подражания Корану». Генезис, архитектоника и композиция цикла // Временник Пушкинской комиссии, 1978. – Д61 б, – С. 26-28.; Бартенев П.И. Пушкин в южной России. – М.: Русский архив, 1914; Цявловский М.А. Летопись жизни и творчества А.С.Пушкина. – М.: Изд-во АН СССР, 1951. Т. 1; Двойченко-Маркова Е.М. Пушкин в Молдавии и Валахии – М.: Наука, 1979 и др.; Гуковский П.А. Пушкин и русские романтики. – Саратов, 1946. – С.242. «Подражания Корану» как лирический цикл //Дарвин М.Н., Тюпа В.И. Циклизация в творчестве Пушкина: Опыт изучения поэтики конвергентного сознания. – Новосибирск: Наука, 2001. – С.79.; Томашевский Б.В. Пушкин. Кн. 2. Материалы к монографии (1824-III 7). – М.; – Л.: Изд-во АН СССР, 1961; Благой Д.Д. Творческий путь Пушкина (1813-1826). – М.; – Л.: АН СССР, 1950; Слонимский А.Л. Мастерство Пушкина. – М., 1963.; Цявловский М.А. Летопись жизни и творчества А.С.Пушкина. – М.: Изд-во АН СССР, 1931. Т. I; Цявловский М.А. Летопись жизни и творчества А.С.Пушкина. – Л.: Наука, 1991; Летопись жизни и творчества А.С.Пушкина: В 4 т./ Сост. М.А.Цявловский; Отв. ред. Я.Л.Левхович. – М.: Слово / SLOVO, 1999. Пушкинская энциклопедии «Михайловское»: В 3 т. – с. Михайловское – М., 2003. – Т. 1. Михайловское; Тригорское; Святогорский Монастырь. Святые Горы; Заповедник – Персоналии.

²¹ Гердер И.Г. Идеи к философии истории человечества. – М., 1988. – С.154.

²² Анненков П.В. Александр Сергеевич Пушкин в Александровскую эпоху. – М., 1999. – С. 377.

bo'yicha professori Nezelenov "Tatabbu'lar"da uning "diniy tafakkuri" "iliqlashgani"ni ko'rganligini yozadi²³. 1898-yilda adabiy tanqidchi va publitsist Nikolay Chernyayev shunday deb ta'kidlagan edi: "Qanchalik g'alati tuyulmasin, Qur'on Pushkinning diniy uyg'onishiga birlamchi turtki berdi va shuning uchun ham u uning ichki dunyosida ulkan ahamiyat kasb etdi"²⁴. Rus adabiyotshunosi, tilshunosi, faxriy akademik Dmitriy Ovsyanik-Kulikovskiy Pushkinning shoirona ziyrakligiga yuksak baho bergan. Pushkinning "Qur'onga tatabbu'lar" asarining yagonaligi va avtonomligini ta'kidlagan adabiyotshunos: "Bu diniy lirika na injiliy (qadimgi ibroniy), na nasroniy va na musulmonchilikdan boshqa biror narsa deb atalishi mumkin emas, shu bilan birga, umuman olganda u musulmonchilik ham emas, balki Muhammad (s.a.v.)ning dini paydo bo'lgan davrda uning va'zlarida alohida vujudga kelgan va yangragan narsadir"²⁵, deb qayd etadi. Bu mulohazalar Pushkinning Islom asoslariga murojaat qilishiga oid ma'naviy va diniy tajribasi nuqtayi nazaridan prinsipial ahamiyatga ega. Sharq haqidagi o'z badiiy-estetik tasavvurlarida Pushkin an'anaviy Islom asoslarini hech qanday buzilishlar va shubhali talqinlarsiz ifoda etgan, uning butun insoniyat oldidagi xizmati ham mana shundadir.

"Madaniyatlar sivilizatsiyasi dialogida Qur'onning aksiologik jihatlarini (A.S.Pushkinning "Qur'onga tatabbu'lar"da sikl va ifoda vositalarining subyektiv tashkil qilinishi)" nomli 2.2. paragrafda "Tatabbu'lar"ning asl Muqaddas kitob bilan o'zaro nisbati muammosi ko'rib chiqilgan. Nisbat berish jarayoni, birinchi navbatda, shaxsan shoir kechinmalarining voqeligi va haqiqiyliigi masalasidir. Tadqiqotchilarning fikricha, Pushkin Qur'on tarjimasiga yetarlicha yaqin bo'lgan, u Qur'onning 33 ta turli suralaridan 81 oyat ishlatgan²⁶. Demak, "Qur'onga tatabbu'lar" ustida ish olib borayotganda, Pushkin musulmonlarning Muqaddas kitobidagi quyidagi sura va oyatlardan foydalangan:

1 – "Ont ichaman juft-u toq haqqi..."	2 – "Ey, Rasulning pok ayollari ..."	3 – "Qovoq uydi Payg'ambar, ko'ngli g'ashlanib..."	4 – "Ko'p qadimda, qodir Yaratgan, Baslashmoqchi bo'ldi sen bilan..."	5 – "Yer turg'undir; gumbazi samo..."
Qur'on sura va oyatlari: 90 (1-3); 53 (2-3); 19 (50, 51); 20 (27, 28); 93 (1-3, 9); 5 (67); 9 (1-3, 17-18); 86 (1-2); 56 (75)	Qur'on sura va oyatlari: 33 (32, 33, 53)	Qur'on sura va oyatlari: 80 (1-3, 21-22, 24-31, 33-36, 40-42); 15 (94); 2 (256, 257); 22 (5); 56 (47-49)	Qur'on sura va oyatlari: 61 (1-3); 22 (6); 2 (258-260)	Qur'on sura va oyatlari: 22 (63-65); 55 (2-13); 7 (54); 9 (116); 25 (2, 54-55, 59); 32 (7-9); 35 (39-41); 20 (4); 57 (2-6); 24 (35-43); 2 (29)
6 – "Kirmadingiz tushga behuda ..."	7 – "Qo'zg'ol, ey xavfnok..."	8 – "Vijdoningni sotib rangpar faqirlik uzra, ..."	9 – "So'ng horg'in yo'lovchi shakkoklik qildi: ..."	
Qur'on sura va oyatlari: 48 (15-27); 60 (10-12); 61 (4); 82 (13)	Qur'on sura va oyatlari: 73 (1-4); 18 (27)	Qur'on sura va oyatlari: 2 (261-266); 73 (20); 74 (15-23)	Qur'on sura va oyatlari: 2 (258, 259)	

²³ Незеленов А.И. История русской словесности. – СПб., 1882.

²⁴ Черняев Н.И. «Пророк» Пушкина в связи с его же «Подражаниями Корану». – М., 1898. – С. 54.

²⁵ Овсяник-Куликовский Д. История русской литературы. – М., 1903. – С. 128.

²⁶ Томашевский Б. Пушкин. (в 2 кн.) –М.;Л.,1961.Кн.2.–С.31.http://feb-web.ru/feb/classics/critics/tomashevsky_b/tp/tp2-001-.htm

Qur'oni Karimning shoir tanlagan har bir surasi, albatta, maxsus ma'noviy borliqni o'zida mujassam etgan bo'lib, she'riy g'oya qimmatini o'zgartirishga yordam beradi. Qur'oni Karim rivoyatlarining "Tatabbu'lar"da aks ettirilishi shoirning musulmonlar Muqaddas kitobi tarixi haqidagi chuqur qarashlari ifodasi bo'lib, siklik she'rlari shunisi bilan ayniqsa qimmatlidir. Shubhasiz, bu daho shoirning qiziqishi behuda emas, balki o'zga madaniyatni tasavvur qilish uchun uning hayot mazmuni va haqiqatiga bo'lgan faol izlanishlaridan dalolatdir. Shuni qayd etish joizki, Pushkin Qur'ondan, Gyote o'zining "G'arbiy-Sharqiy devon"ida qilganidek, ekzotika qidirmaydi. O'z hayotini qat'iy tushunib yetish va boshqa narsalardan ma'no izlash oldida hayotni tushuntirish undan aslo kam emas. Pushkin borliqning boshqa shakllari va boshqa olam haqidagi haqiqatni oshkor etish bilan Shimol mentaliteti va o'z xalqiga ochiq-oydin qarama-qarshi bo'lgan hayotning boshqa formulasini anglab yetadi. Buyuk shoir sifatida uni nafaqat hayotning boshqa shakllari hayratlantiradi, balki arablarning sahroyi hayot shakllari shoirni o'ziga tortadi, ilhomlantiradi, hayratga solib, lol qoldiradi. Mana "Tatabbu'lar"dagi shunchalar ta'sirli va jozibali misralar, asl va g'ayrioddiy obrazlar, qasmlar, qayta ifodalar qayerdan kelgan: "Ont ichaman juft-u toq haqqi, Ont ichaman men Zuhro haqqi, Xuftondagi ibodat haqqi va h.k."²⁷.

Pushkinning "Qur'onga tatabbu'lar"i asl manba xususiyati bilan o'zaro bog'liq o'ziga xos subyektiv tuzilishga ega lirik sikldir: Qur'onda Alloh nomidan yoki uning payg'ambarlari nomidan hikoya qilinadi. "Tatabbu'lar" murakkab subyektiv tarkibiy qismga ega: unda lirik qahramon ovozi tashqari, asosiy qahramonlar sifatida Alloh va Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning ovozi ham eshitiladi. Sikl uch ongning murakkab dialogi sifatida namoyon bo'ladi, ovozlari nafaqat aniq va alohida ajralib turishi, balki bir ovozni boshqasidan ajratish qiyin bo'lganida birlashishi, birga eshitilishi mumkin. "Qur'onga tatabbu'lar"dagi lirik sujetning polifonik asosi mana shunda bo'lib, ularni asl manbadan sezilarli darajada ajratib turadi. Matnning bunday subyektiv tashkil etilishi shoirning o'zining stereoskopik dunyoqarashi va kechinmalarini ifodalash imkonini beradi va bu orqali biz Pushkin badiiy olamining qanchalik keng va ko'lamdor bo'lganligini, uning Qur'onga qanchalik chuqur kirib borganligini, uning mentalitetiga yot bo'lgan estetik baho xarakterini aniqlashimiz mumkin bo'ladi. "Tatabbu'lar"da teran ma'noga ega leksika bisyor. She'rda Injil matnlariga o'xshash maxsus ma'no beruvchi qadimgi slavyanizmlar alohida o'rin tutadi ("роптал" – shakkoklik qildi, "алкал" – Tangri deb bildi, "зеницы" – qaqrok ko'z). Eпитетlar ("безнадежной" – noumid, "усталый" – horg'in, "мгновенный" – bir lahzalik), metaforalar ("сень упокоенья" – go'shayi taskin ichra, "зоркое гоненье" – sinchil nigoh ta'qibi), taqqoslashlar ("как лён, елеем напоенный" – zaytun moyi singgan pilikdek) barcha xilma-xilligi bilan taqdim etilgan.

Alohida amr – buyruq ma'nolarining murakkab birikmasi va kesishmasida siklning yagona axloqiy-falsafiy tizimi qurilgan. Siklning subyektiv tashkil etilishini tahlil qilayotib, Pushkin Islom amrlarini umuminsoniy axloqiy haqiqat sifatida gavdalandirgani uchun ham biz "Qur'onga tatabbu'lar"ni madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin. Pushkin "inkor ruhi, shubha ruhi"ni hamda murakkab hayotiy to'fon va qiyinchiliklarni

²⁷ Пушкин А.С. Сочинения в трех томах. – Т.1. – М., 1985. – С. 321.

yengib o‘tib, dinni “barcha xalqlar uchun she’riyatning abadiy manbai”²⁸ sifatida qabul qildi. Zamonaviy dunyoni tashvishga solayotgan etnomadaniy aloqa muammolari nuqtayi nazaridan shoir tanlagan Qur’on suralarining pushkincha talqini alohida ahamiyat kasb etadi. Uning Qur’onning yuqorida zikr etilgan suralari bilan ishlashi borliqning obyektiv qonunlarini chuqur anglashini ifodalaydi, unga muhim “narsalar rivojini” o‘zicha talqin qilish va aks ettirish, Qur’onning axloqiy-falsafiy kodlari jiddiyligini ko‘rish imkonini beradi. Sikl kompozitsiyasi, matnlarning o‘zaro ichki dialogik munosabatda bo‘lishi, tovushlar polifoniyasi, axloqiy kodlarning ikkilanishi, ovozlarning uchligi, muhim ma’noviy tarkibiy qism kabilar she’rlarni yagona ibtidoğa birlashtiruvchi va siklning axloqiy-falsafiy tabiatini quyidagicha tarzda ochib beruvchi asosiy tushunchalardir:

Sikldagi she’rlarning raqamlanishi	1, 2, 7	4, 6, 8	3, 5, 9
Sikldagi she’rlarning nomlari	“Ont ichaman juft-u toq haqqi”; “Ey, Rasulning pok ayollari”; “Qo‘zg‘ol, ey xavfnok”	“Ko‘p qadimda, qodir Yaratgan, Baslashmoqchi bo‘ldi sen bilan”; “Kirmadingiz tushga behuda”; “Vijdoningni sotib rangpar faqirlik uzra”	“Qovoq uydi Payg‘ambar, ko‘ngli g‘ashlanib”; “Yer turg‘undir; gumbazi samo”; “So‘ng horg‘in yo‘lovchi shakkoklik qildi”
Janr	diniy qasidalar	diniy ramzli hikoyalar (she’rlar-kontrastlar)	diniy qasida va diniy ramzli hikoya
Mavzu	Qudratli Payg‘ambar va Qur’on buyukligi, haqiqat, poklik va ezgulik qudrati timsoli mavzusi	Yaratgan, Payg‘ambar va kibr hamda man-manlik girdobiga botgan oddiy inson tortishuvi	Gunoh va uning uchun qasos, Xudoga imon keltirish va xizmat qilish
Lirik subyekt	Xudo	Payg‘ambar	Muallif
Natija	Yaratguvchi Xudoning cheksiz qudrati haqidagi g‘oya: (dunyoda inson va Xudo, payg‘ambarlik va insoniylik o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning murakkab yo‘llari haqida). Dunyo va borliq asoslarining ahamiyati va mustahkamligini tushuntirish, Xudoga va insoniyatning o‘zini anglashiga yordam beruvchi Uning Ilohiy kitoblariga imon keltirish	Payg‘ambarlikning mashaqqatli yo‘lini ko‘rsatib berish: (bu she’rlarda yakka-yu yagona Xudoga xizmat qilish g‘oyalari va payg‘ambarlikning yuksak axloqiy qadr-qimmatini haqidagi ta’limot mavjud) Bu dialogik kontrastlarda Xudo va kibrga ketgan inson o‘rtasidagi bahsning muhimligi ochib beriladi	Xudoga axloqan xizmat qilish g‘oyasi: (taqvodorlik va kamtarlik tamoyillari, hayot sahrosi bo‘ylab – yomonlikdan yaxshilikka, kufrdan imonga, adashishdan haqiqatga tomon inson yo‘lining muhimligi mavzusi)

Insoniy hayot qonunlari va sirlari butun siklning asosiy birlashtiruvchi mavzusidir. Har bir matnning Qur’oni Karimda o‘z retsepsiyasi mavjud bo‘lib, har bir she’rda pushkincha motivlarning aks etishi uning haqiqatni “his qilishi” nuqtayi nazaridan yoritilgan. Binobarin, biz ularda Pushkin tomonidan Sharq va rus mentaliteti hayot haqiqatlarini ikki tomonlama tushunish mumkin bo‘lgan maxsus sharqona matn yaratilganini aniqlashimiz mumkin. Qayd etilgan barcha mavzular ko‘lami inson

²⁸ Бердяев Н. Судьба России. – М., 2018. – С.147.

hayotining muhim muammolari: insonning koinotdagi o‘rni va taqdiri, Oliy qonun va qudratning (Xudo, Alloh) ta’rifi, dunyo tartibining obyektiv qonunlarini hal qiladi.

“A.S.Pushkinning “Payg‘ambar” she’rida injiliy va qur’oniylar sintezi” nomli 2.3. paragrafda rus va jahon adabiyotidagi payg‘ambarlik mavzusini tushunishning murakkab paradigmasi bo‘yicha bir qator izlanishlar tahlili taqdim etilgan. Pushkin tomonidan shoir obrazi va Payg‘ambar o‘rtasida chizilgan aniq parallel chiziq, umuman olganda, she’rni payg‘ambarlik mavzusini anglash yo‘lidagi muhim qadamga aylantiradi. Pushkin o‘zining “Qur’onga tatabbu’lar” siklida shu mavzuga murojaat qilgan. Musulmonlar payg‘ambari hayoti haqidagi haqiqatni tushunish, faktologik materiallarni bilish Pushkinga payg‘ambarlik va she’riylar ilhom o‘rtasidagi chegarani ajratib turadigan nozikliklarni tushunishga yordam beradi. Bu asarni tahlil qilar ekanmiz, tadqiqotchilar o‘z tahlillarining katta qismini Pushkin bu asarni yaratishda aynan qanday payg‘ambarni nazarda tutganiga bag‘ishlaganliklariga e’tibor qaratdik. Turlicha mulohazalarning barchasini ikkita asosiy konsepsiyaga birlashtirish mumkin: ba’zi tadqiqotchilar Pushkin payg‘ambarini Injildagi bashorat an’anasiga yo‘ysalar²⁹, boshqalari esa Pushkinning “Payg‘ambari” va Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) o‘rtasida ma’noviy o‘xshashlikni ko‘rishadi³⁰.

Pushkin asariga injiliy va qur’oniylar motivlarni kiritish muammosini ko‘rib chiqib, agar ushbu muammo motivlari muhim ma’noviy rivojlanishlarining barcha konseptual izlanishlari va belgilarini birlashtirsak, biz yana bir bor umumiylikni xususiylik orqali aniqlashda ushbu global madaniyatlararo kommunikatsiya muammolariga yaqinlashamiz, degan xulosaga kelamiz. Pushkinni payg‘ambarlar taqdirining o‘xshashligi haqidagi ma’noviy tushunchalar tashvishlantiradi, u turli dinlar tomonidan payg‘ambarlik taqdirini tushunishda alohida farqlarni qayd etmaydi, u bu mavzuga dunyoviy inson va fuqaro pozitsiyasidan kelib chiqib yondashadi, u buni faqat badiiy matnning adabiy imkoniyatlari bilan maxsus polifoniyaga erishgan, Injil va Qur’on sadolarini birlashtirgan holda amalga oshiradi. Pushkin insoniyatning buyuk Kitoblari bir xil kuchga ega ekanligiga ishongani tufayli Injil yoki Qur’oni Karimga ustunlik berib Muqaddas kitoblarni ajratib ko‘rsatmaydi. Pushkin Qur’oni Karim sujet va motivlaridan foydalangan holda uyg‘un kompozitsion chiziq qurib, xalqlarning diniy e’tiqodidan qat’i nazar, barcha payg‘ambarlarning insoniyatning ma’naviy-axloqiy tayanchi bo‘lishga haqli ekanligini isbotlaydi. A.Pushkin Qur’oni Karim uchun eng tipik o‘rinlarda tasavvufiy tafakkur tuzilishini saqlabgina qolmay, balki matnda ehtimoliy ramziy mutolaa: Qur’oni Karim eslatmalarini (zulmat sahrosi, olti qanotli farishta) badiiy idrok etishning murakkab mantig‘i, motiv-obrazilardan foydalanish xarakteri, matnning sharqona kodlariga urg‘u berishdan darak beruvchi maxsus o‘rinlarni ham shakllantirgani matn materialida isbotlangan. Shoir qo‘llagan Qur’on suralari: 35 – “Fotir”, 53 – “An-Najm”, 74 – “Al-Muddasir”, 96 – “Al-Alaq” va h.k. Pushkin Qur’on sura va oyatlari ustida jiddiy ish olib borganligidan dalolat beradi. Paragrafda Pushkin she’ri Qur’oni Karim va Hadislardan olingan iqtibos hamda havolalar bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini isbotlovchi jadval ko‘rgazmalilik uchun taqdim etilgan. Bu holda matnni tushunish yanada murakkablashib, chuqurlashib borishi sabab bu xulosalar

²⁹ Сураг И.З. Пушкин: биография и лирика: Проблемы. Разборы. Заметки. Отклики. – М.: Наследие, 2000. – 240 с.; См.: Непомнящий В.С. Пушкин. Избранные работы 1960-1990-х гг. в 2 т. – М.: Жизнь и Мысль, 2001.

³⁰ Черняев Н.И. «Пророк» Пушкина в связи с его же «Подражаниями Корану». – М.: Универс. тип., 1898 – С. 75.

nihoyatda muhim bo‘lib, Qur’oni Karim falsafasi nuqtayi nazariga ko‘ra A.Pushkin payg‘ambari siymosining mukammalligidan dalolat beradi.

“Pushkin davri shoirlari lirikasida qur’oniy rivoyat va obrazlarning aks etishi” nomli 2.4. paragraf Pushkin davri shoirlari Lukyan Yakubovich, Yakov Polonskiy, Nikolay Grekov, Mixail Mixaylov, Lev Kobilinskiy-Ellis³¹ tomonidan Sharqning tushunilishi va idrok etilishi masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, u Pushkinning haqiqat izlashi bilan monanddir. Ularning asarlari umumiy nom bilan “Qur’ondan” deb atala boshlandi, bu o‘z-o‘zidan ular bevosita Qur’oni Karim ta’siri ostida yozilganligini ko‘rsatardi. Ushbu paragrafda Qur’oni Karim Pushkin davrining ko‘plab shoirlari uchun she’riy ilhom manbayi bo‘lganligi, ular undan maxsus ilhomlanish manbasini topganligi ko‘rsatib berilgan. Ularda qur’oniy matnni badiiy asarga singdirish, Qur’oni Karim qissalarini aks ettirish, Islom dinining Muqaddas kitobidagi bir qator motivlar va obrazlarni transformatsiya qilish an’anasi mavjud bo‘lgan. Jadvallarda keltirilgan parallellar shundan dalolat beradiki, ushbu she’riy matnlar (Pushkindan keyin) Qur’oni Karimni o‘zlashtirish va uning axloqiy-qadriyatli salohiyatini ochib berish an’analarini davom ettiradi. Bu rus mumtoz og‘zaki, yozma adabiyoti va musulmonlarning Muqaddas kitobi o‘rtasidagi yangi aloqalarni ochib beruvchi ko‘plab she’rlar uchun Qur’oni Karim “kod” degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Rus adabiyotining “qur’oniy matni”ni anglash, binobarin, musulmon Sharqi ma’naviy boyligini tushunib yetishda bu asarlar alohida ahamiyat kasb etishi ham shundan.

Dissertatsiyaning **“M.Lermontov ijodining dialogik maydonida sharqona kodlar”** nomli uchinchi bobida Lermontov oriyentalizmi, o‘zga madaniyat tafakkur shakllarining falsafiy teranligi va uni idrok etishga tayyorlik masalalari tadqiq qilingan, “Sharq–G‘arb–Rossiya” muammosini hal qilishda Lermontov sharqona asarlarining sujet-kompozitsion tuzilishi va Kavkaz paradigmasi tahlil qilingan, taqdirni qur’oniy tushunish mifologemasi estetikasini idrok etish orqali Lermontovning iblis obrazi evolutsiyasini kuzatish muammolari hal qilingan, Lermontov qalamiga mansub “Payg‘ambar” retsepsiyasida Pushkin mavzusini tasavvuriy aks ettirish jihatlari ochib berilgan, Lermontovning “Oshiq–G‘arib” nomli turk ertagidagi Qur’on hikoyasi tahlil qilingan.

“Lermontov ijodida “Sharq–G‘arb–Rossiya” muammosini hal qilishda Kavkaz paradigmasi” nomli 3.1. paragrafda shoirning Kavkazni tushunishi va idrok etishi ko‘rib chiqilgan, shoir ijodida Sharqni idrok etish xususiyatlari sharqiy tasavvurlarga genetik jihatdan yaqin bo‘lgan segment sifatida Kavkaz mentaliteti orqali o‘tishiga e’tibor qaratilgan. Kavkazni o‘zlashtirishda Pushkin va Marlin (A.Bestijev-Marlinskiy) an’analarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirib, Lermontov o‘z ijodida Sharq belgisi sifatida ifodalangan Kavkazni yaratadi. Lermontov uchun Kavkaz madaniy, ma’naviy va tarixiy tafakkurning ma’lum bir tizimiga, axloqiy-estetik va falsafiy idrok etishning o‘ziga xos immanent mexanizmiga aylanadi. Paragrafda aloqa qilish, ishtirok etish, idrok etish va qayta yaratish orqali turli madaniy va mental kodlarning o‘zaro ta’sirlashuvi sodir bo‘lishi, unda Lermontov o‘z dunyo makonini yaratganligi, uning ichida Sharqning moddiy va madaniy parametrlarini alohida idrok etganligi qayd etilgan.

³¹ Гаврилов Ю.А, Шевченко А.Г. Взаимопроникновение культур. Коран в творчестве русских поэтов. – М.: Наука, 2006. – С.78.

Lermontov ekzotik sharqona ijodga oid yevropacha standartlar ketidan quvmaydi, uni Sharqning kuchli tomoni: uning o'xshashi yo'qligi va teranligi, nozikligi va ko'p ma'noliligi o'ziga tortadi. U o'zining genial o'tmishdoshi Pushkin singari Kavkazda o'z milliyiligi orqali Sharqni konseptual-ma'noviy idrok etishning o'ziga xos simbiozini yaratadi. Aynan shu idrok keyinchalik G'arb-Sharq sintezi yoki uning badiiy matnida aks ettirilgan "dunyoni ikki millatli idrok etish"³² deb nomlanadi, aynan shu Lermontov ijodining dialogik makoni haqida gapirishimizga imkon beradi. Uning dunyoni poetik idrok etishining murakkab tarkibiy qismlarini tahlil qilib, ijodidagi kuch va erkinlik, qismat va fatalizm, darbadarlik va taqdir, yer va osmon, tush va hayot, yo'l va yo'lning yo'qligi va boshqa shu kabi umumiy konseptual tushunchalarga diqqat qaratamiz. Uning nazmiy va nasriy matnlari go'yo oldindan belgilangan ana shu konseptlardan to'qilgandek va, shubhasiz, M.Y.Lermontov "sharqona matnlar"ining falsafiy ibtidosi shundan kelib chiqqan. Lermontov leytmotivlarini tahlil qilish Lermontov she'riyatining strukturaviy-mazmuniy va umumiy dunyoqarash ma'nolariga yo'nalish beruvchi asosiy tushunchalar mohiyatini ochib berish imkonini beradi. Lermontovning "Kavkaz" asarlarida sharqona materiallar namoyon bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, ular bir-biri bilan hayratlanarli darajada bog'liq ekanligini kuzatishimiz mumkin. Lermontov Kavkazga yaqinlashib, u yerda o'z umrining ko'p qismini o'tkazganini inobatga olsak, u bu makonda shunchalik ko'p narsalarni topadiki, ko'plab sharqona tushunchalar tuzilmasini ochib berish nuqtayi nazaridan ular uni tashvish va xavotirga soladi. Kavkaz tufayli, Y.M.Lotmanning ta'kidlashicha, shoirning Sharqqa bo'lgan qiziqishi "shunday tus oladiki, endilikda u tipologik deb atala boshlandi. Lermontovni G'arbdagi madaniyat turi va Sharqdagi madaniyat turi, shunga ko'ra, har ikkala madaniyat odamlarining xarakteri qiziqitira boshladi"³³.

"Lermontovning "Iblis"i qur'oniy taqdir tushunchasi konseptual aspektida" nomli 3.2. paragrafda iblis mavzusi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan bo'lib, u shoirning romantik maslagidagi erkinlik va tutqinlik haqidagi konseptual-estetik pozitsiyasining davomi sifatida taqdim etilgan. Shoir maslagining umumiy romantik yo'nalishi Xudoga qarshi isyon ko'targan farishta haqidagi falsafiy tasavvurlarda aniq ifodalangan. Bu mavzu Lermontovni nafaqat tashvishga soladi, balki tushirilgan farishta mohiyati haqidagi uning barcha tasavvurlari unga azob beradi. Shu nuqtayi nazardan, taqdir va hayotning sharqona oldindan belgilab qo'yilgani haqidagi lermontovcha tushunchani tushunish biz uchun Iblis obrazini ko'rib chiqishda muhimdir. Lermontovning iblis obrazini ko'rib chiqadigan bo'lsak, biz uning qur'oniy Iblisni tushunishga yaqin kelganligini kuzatamiz. Iblisizmga nisbatan xristiancha va musulmoncha yondashuvlarning ikki konseptual tushunchasini bir-biridan darhol ajratib, biz yondashuvlarda farq borligini payqaymiz. Qur'oniy shayton Xudoga dushman emas, balki insonga qarshidir. Allohning Buyukligi va U yaratgan barcha narsalar haqidagi islomiy tushuncha Uning mutlaq rejasi ko'rinishidir (Qur'on, 2-163). Iblis, odamdan nafratlanib, unga zarar yetkazadi, chunki u o'zini odamdan ancha yuqori qo'yib, odamga bo'ysunmaslik kerak deb hisoblaydi va, musulmoncha apologetika nuqtayi nazaridan, o'zining "maktubi", "taqdiri" – qismati taqozosi ila shunday qiladi ham (Qur'on, 72:

³² Алексеев А.В. Восточный текст в поэтике М.Ю.Лермонтова. [http:// elibrary.ru](http://elibrary.ru)

³³ Лотман Ю.М. Проблема Востока и Запада в творчестве позднего Лермонтова // Лермонтовский сборник. – Л., 1985. – С. 5.

1–28). Taqdirning bu ikki eng murakkab mifologemasini, bitta iblis konseptini mutlaqo ikki xil tushunish Lermontov uchun dunyoning ko‘p o‘lchovlilikini anglash, ikki xil diniy falsafani bir-biriga yaqinlashtirishga urinish bo‘ladi.

Lermontov uchun bu uning bunday personajlarga bo‘lgan munosabatini ochib beradigan konseptual pozitsiyadir. U Iblis obrazida ijobiy ibtidoni ko‘radi, “quvg‘in bo‘lgan ruh”ning erksevarligini olqishlaydi. Bu Lermontovning iblisini Prometeyga o‘xshatib yuboradi. Iblis va Zevs zulmiga qarshi isyon ko‘targan Prometey obrazlari o‘rtasidagi sharqona pozitsiya va chambarchas bog‘liqlik Kavkaz mifopoetik makonida sodir bo‘ladi, Lermontov uchun esa bu sharqona mohiyat shundan iborat. Lermontovning qahramonlik ko‘rsatish qobiliyati haqida gapira turib, V.N.Turbin shunday degandi: “Lermontov, shubhasiz, filologik jihatdan ancha iste‘dodli, tilni favqulodda chuqur tushunadi, o‘zini turli xil til oqimlari va madaniy an‘analar tutashgan joyda deb tasavvur qiladi”³⁴. Bu noaniq musulmoncha motivlar va tushunchalar haqiqiy nasroniy qalbida qayerdan paydo bo‘ladi? Nasroniylar she‘riy ongi destrukturizatsiyasi Lermontovning iblisizm g‘oyalarini chuqurroq musulmoncha-falsafiy tushunganligi tufayli sodir bo‘ladi. Bu allaqachon “o‘zga” ong shakllari kashfiyotidan keyin yuzaga kelgan yangi poetik g‘oyaning yaratilishidan dalolat beradi. “Iblis” she‘rida Lermontov Iblisdan voz kechish haqida emas, balki uning Xudo huzuriga qaytish imkoniyatlari haqida fikr yuritadi, chunki uning dunyo bilan ixtilofining ma‘nosi, birinchi navbatda, Xudoning niyati va o‘z kibrining katta-kichikligini noto‘g‘ri tushunishdadir. Lermontov Iblisning dahshatli azoblari haqida yangicha talqinda gapirishga harakat qiladi va bu yerda uning Sharqning yangi falsafasi – Qur‘oni Karimga bo‘lgan ishtiyoqi ajoyib tarzda kuzatiladi.

“Lermontovning “Payg‘ambar”i Pushkinning payg‘ambarlik mavzusining davomi sifatida” nomli 3.3. paragraf Lermontovning payg‘ambarlik mavzusiga yechim topish xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda Pushkinning “Payg‘ambar”i belgilagan mavzu davom ettiriladi. Lermontovning lirik she‘ri-tavbasi shoir va olomonning abadiy mavzusini umumlashtiradi. Xuddi Pushkindagi singari Lermontov badiiy asarida ham chuqur diniy-payg‘ambarlik motivlari namoyon bo‘lib, unda Shoir va Payg‘ambar mavzulari asosiy tushunchaga aylanadi. Lermontov matnida Pushkin motivlarini osongina tanib olish mumkin. Reminissensiyalarni osongina aniqlash mumkin: bir xil nom, ko‘tarinki ruhdagi so‘zlarning serobligi, cherkov-slavyanizmlar. Shoir-payg‘ambar boshqacha shaklda gavdalanishning murakkab transformatsiyasini boshdan kechirib, payg‘ambarlik – Xudoning kalomini dunyoga, odamlarga yetkazishdek in‘omga ega bo‘ldi. Aynan shu eng murakkab transformatsiya lahzalari Lermontov qahramonining monologik istig‘forlariga aylanadi. Eyxenbaum B., Mixaylov Y., Grossman L. kabi adabiyotshunoslar Payg‘ambar tasvirida Pushkin uchun ustuvor motivni e‘tirof etib, “Pushkinda dunyoviy tanbeh va ta‘qib qilish motivlari deyarli mavjud emas”³⁵, deb ta‘kidlaydi. Lermontov kontekstida uning Payg‘ambari insonni tahqirlashning barcha bosqichlaridan o‘tadi. Qahramonning yolg‘izligi, umidsizligi va

³⁴ Турбин В.Н. «Ситуация двуязычия» в творчестве Пушкина и Лермонтова // Лермонтовский сборник. – Л., 1985. – С. 92.

³⁵ Хешам Мохаммед Махмуд. Образ пророка Мухаммада в русской поэзии конца XVIII-XIX веков // Вестник ТГГПУ. 2014. №2 (36). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obraz-proroka-muhammada-v-russkoy-poezii-kontsa-xviii-xix-vekov> (дата обращения: 24.12.2021).

sogʻinchini choʻl realiyalari yanada kuchaytiradi. Shuni taʼkidlash kerakki, choʻl Lermontov tomonidan paygʻambarlik tushunchasining tavsiflanish nuqtayi nazaridan ancha ahamiyatlidir. Koʻpincha, dunyoviy kelishmovchiliklar va yolgʻizlik gʻam-gʻussasini koʻrsatish uchun Lermontov choʻl tasvirining ushbu konseptual yechimiga murojaat qiladi. Muhammad paygʻambar (s.a.v.) boshdan kechirgan mashaqqatlarni Lermontov qahramoni bilan oʻzaro bogʻlash bizga asarning gʻoyaviy mazmunini anglashda bir qancha muhim pozitsiyalarni aniqlashga yordam beradi. Lermontov Paygʻambari va musulmonlar Paygʻambari taqdirlarining oʻxshashligini aniq misollar bilan oʻzaro bogʻlash lahzalarini kuzatar ekanmiz, obraz yaratishda qurʻoniy motivlar chuqur falsafiy ildizlarga ega ekanligini taʼkidlaymiz va, bizningcha, bu yerda bu tushuncha va holat Muhammad paygʻambar (s.a.v.) paygʻambarlik missiyasining birinchi bosqichida “quvgʻin boʻlgan paygʻambar” obraziga yaqin boʻlganligini tasdiqlashga barcha asoslar bor.

“Lermontovning “Oshiq–Gʻarib” turk ertagi retseptiv estetikasida qurʻoniy motivlar” nomli 3.4. paragrafda Lermontov Qurʻonda anglab yetgan taqdir va uning azaliyligi masalasi gʻoyasini hal qilish davom ettirilgan. Sharqona “Oshiq–Gʻarib” ertagida Lermontovning yangicha dunyoqarashi paradigmasi musulmon va Qurʻoni Karim tushunchalari doirasida hal qilingan. Eksplitsit retsepsiya oʻz yoʻli va hayoti mazmunini yoʻqotgan, keyin esa bir qancha hayot mashaqqatlari va sinovlaridan oʻtgach, uni topgan darbadar Oshiq (xushtor) haqidagi maxsus sujetli rivoyat tusini oladi. Matnning eksplitsitligi ozarbayjon, oʻzbek, turkman va h.k. milliy dostonlaridagi koʻplab sharqona rivoyatlardagidek: odamning safarga chiqishi (tugʻilishi); uning uchun dunyo toʻsiqlar va sinovlarga toʻla yoʻl boʻlishi; daryo – unutish; nisbiy erkinlik – “oliy hakam” bilan uchrashish, suyuqli yor haqida eslatma va vaʼda (oltin idish); belgilarni joylashtirish; paygʻambar rivoyati va turmush taqozosi bilan shoir-musiqachi boʻlib qolish; qalb bilan qaytish; moʻjiza bilan uchrashish, Oshiq onasining shifo topishi kabi tasviriy hikoyatlarni koʻrish imkonini beradi. Bizning nazarimizda, adabiyotshunoslikda sujetning bunday kompozitsion qurilishi va rivojlanishi unda sodir boʻlayotgan voqealarning alohida psixologik asl sababi yoʻqligi bois allaqachon “ibtidoiy” deb baholanib kelinayotganini taʼkidlash muhim. M.Gerxardt arab ertaklaridagi alohida sujet rivojini oʻrganar ekan, bunday sujet sxemalarida “oshiq sogʻinchi taʼriflari, maʼshuqa oʻylarida mahjub obrazini jonlantiruvchi tasavvurni ongli ravishda kuchaytirishga urgʻu berish”³⁶ning yoʻqligini koʻradi. Ertakni tahlil qilar ekanmiz, alohida motivlarning ushbu asar asosida yotgan 17- (“Al-Isro”), 18- (“Al-Qahf”) va 22- (“Al-Haj”) Qurʻon suralari bilan genetik aloqasi mavjudligini koʻramiz. Shubhasiz, bunday diniy-falsafiy kodlar baʼzi sujetlar bayonining oʻziga xos stilistikasi (maʼnolar nozikligi va sharqona nafislik) bilan eksplitsit ifodalangan. Lermontov maxsus matn yaratib, u orqali musulmonchilik gʻoyalarini qanday tushunishi haqida soʻzlaydi. Matnni alohida qarashlar bilan toʻldirib, u ushbu mentalitet kodlarini tadqiq qilish zarurligini taʼkidlaydi. Ular orqali rus va musulmon dunyoqarashining madaniy parametrlari ikki hissa oshishi kuzatilib, bu rus adabiyotini taqdirning muqarrarligi, turmushni anglash, darbadarlik, iblisizm, taqdirning oldindan belgilanganligi va sevgi borasidagi yangi motivlar bilan boyitdi.

³⁶ Герхардт М. Искусство повествования. Литературное исследование «1001 ночи». – М., 1984. – С. 109.

Dissertatsiyaning **“I.Bunin ijodiy merosida Sharq qadriyat yo‘nalishlarining badiiy idrok etilishi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida I.Bunin she‘riyatida qur‘oniy ma‘naviy-madaniyat timsollari muammolari o‘rganilgan, Qur‘onning Bunin tomonidan tushunilishining boyligi va ko‘p qirraliligi ochib berilgan, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) siymosini ifodalashda yozuvchi an‘anasi va novatorligi tadqiq qilingan, Bunin qur‘oniy merosining aksiologik qadriyatlari taqdim etilgan.

“I.Bunin she‘riyatida Qur‘oni Karim ma‘naviy madaniyati ramzlari” nomli 4.1. paragrafda shoir tomonidan Sharqning idrok etilishi xususiyatlari tadqiq qilingan. Sharq uchta din vujudga kelgan joy ekanligini mukammal tushungan va ko‘rgan Bunin ularning sarhadlari va hududlarini aniq ajratib, Quddusni Eski Ahd Sharqi, Arabistonni arab-musulmonlar Sharqi va Hindistonni buddaviylar Sharqi sifatida ko‘radi. Sharqning uch tarkibiy qismga bo‘linishi, bizga Buninning ushbu kontinental belgiga nisbatan chuqur qiziqishi darajasini tushunishga yordam beradi. Shoir, dunyoni bu keng hududlarsiz tasavvur qilish mumkin emas, bu dunyo tamadduni tarkibiy qismining belgisi, deb hisoblaydi. Paragrafda Buninning Sharq mavzusidagi asarlari qur‘oniy motivlar yaxlitligida tahlil qilingan, matnlarning mavzuiy va stilistik o‘ziga xosligi ochib berilgan, Qur‘onning ayrim sura va oyatlarini tahlilga tortish orqali ularning alohida ma‘nolari aniqlangan. Bu Bunin asarlarining mazmuniga chuqurroq kirib borish, muallifning bilvosita emas, balki uning nazmiy va nasriy ijodida uchraydigan an‘analar haqidagi haqiqiy bilimni ochib berish imkonini beradi. Bunin ijodidagi rus adabiyoti va uning sharqona tarkibiy qismi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir tabiati bo‘yicha fundamental tadqiqotlarda³⁷ ko‘plab tadqiqotchilar ushbu o‘zaro ta‘sirlarning bir qator o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadilar va “arab sikli” she‘rlari bilan Bunin Sharqni “o‘ziniki” qilib olganini, shu tarzda, uni rus xalqiga yaqinlashtirganini ta‘kidlaydilar³⁸. M.L.Mirza-Avakyan bu izlanishlarda I.A.Bunin she‘riyatidagi “jahon madaniyati yo‘llari, buyuk tamaddunlar halokati sabablari to‘g‘risidagi mulohazalar”da³⁹ umumiylikni ko‘radi. Shuni ta‘kidlash kerakki, Buninning “o‘z” Sharqini qidirishdagi ma‘naviy izlanishlari mohiyatini kuzatib borgan ko‘plab tadqiqotchilar Bunin Sharqining turli-tumanligi haqida bir xil fikr bildirganlar.

“Buninning “Qush soyasi” yo‘l ocherklarida qur‘oniy motivlarning ishlatilishi” nomli 4.2. paragrafda shoir ijodiy hissiyoti orqali o‘tkazilgan Qur‘oni Karim g‘oyalari va obrazlari sintezi, dunyoni tushuntiruvchi g‘oyalar yagona madaniy makonini yaratish “Islom” she‘rlari va “Qush soyasi” nasriy ocherklari siklining ijodiy muvaffaqiyatini oldindan belgilab berganligi ta‘kidlangan. Bunin “Qush soyasi” ocherklarida mahalliy diqqatga sazovor joylarning turli-tumanligi va rang-barangligidan ilhomlanib, ulardan zavq-shavq olib Sharq qadamjolari muhitini yaratadi. Konstantinopol-Istambul, Ayo-Sofiya, Ahmadiya, Golubin, Qohira, Damashq, Bayrut

³⁷ Сливицкая О.В. Бунин и Восток: к постановке вопроса. – М., 1969; Денисова Э.О. Восток и поэзия Бунина. – М., 1975; Свет В.Е. Сопоставительный анализ стихотворения И.Бунина «Сатана Богу» и древневосточного памятника. – М., 1986; Проходова В.П. Бунин, Пушкин, Толстой. Встреча на перекрёстке Востока. – М., 1999; Крапивин В.В. Между Синаем и Цейлоном: Восток в прозе Ивана Бунина. – М., 2000; Мирза-Авакян М. Работа И.А.Бунина над темой Востока. – М., 1981; Тартаковский П.И. Поэзия Бунина и арабский Восток. – М., 1971; Мальцев Ю.В. Иван Бунин: 1870–1953. – [Frankfurt/Main; М.]: Посев, 1994. – С. 7; Долгополов Л.К. Судьба Бунина // Долгополов Л.К. На рубеже веков: О русской литературе конца XIX – начала XX века. – Л.: Советский писатель, 1985.

³⁸ Тартаковский П.И. Поэзия Бунина и арабский Восток. – М., 1971. – С. 21.

³⁹ Мирза-Авакян М. Работа И.А.Бунина над темой Востока // Творчество писателя и литературный процесс: Межвуз. сборник науч. трудов / Иванов, гос. ун-т; Отв. ред. П. В. Куприяновский. – Иваново, 1981. – С. 216-227.

machitlari va Quddusning musulmonlar yashaydigan qismi Bunin uchun kuch va ilhom maskaniga aylanadi. Bunin u tashrif buyurgan joylar ekzotikasidan ilhomlanadi, barcha me'moriy inshootlar uni sharqona go'zallik muhitiga cho'mdiradi, lekin bu ham voqelikning haqiqiy manzarasini yaratishda unga to'sqinlik qilmaydi. Bu yerda ekzotika yoki sharqona motivning o'zi emas, balki yangi hayot tuyg'usini qayta tiklash uchun qilingan murakkab, puxta o'ylangan ish birinchi planga chiqadi. Y.I.Ayxenvald "sayohat she'rlari" uslubiga e'tibor qaratadi: "Uni Sharq, "nurafshon mamlakatlar" o'ziga maftun etadi, bu haqida u lirik so'zning g'ayrioddiy go'zalligi bilan endilikda eslaydi ... Bunin injiliy va zamonaviy Sharq uchun mos uslub topadi: ulug'vor va gohida go'yoki otashin quyosh tafti bilan to'lib-toshgandek, obrazlilikning qimmatbaho inkrustatsiya va arabeskalari bilan bezatilgan, bunda din va mifologiyaning bepoyon kengliklarida ko'zdan g'oyib bo'lgan mo'ysafid haqida gap ketganda, u bizda insoniyatning qandaydir ulug'vor aravasi oldimizda harakatlanayotgandek taassurot qoldiradi..."⁴⁰. Bunin siklga Qur'ondan ko'plab iqtiboslar kiritadi: "Xalqlarga muqaddas uyga sayohat haqida gapirib beringki, ular uzoq mamlakatlardan u yerga piyoda tezkor tuyalarda kelishsin"⁴¹ iqtibosi "Haj" surasining bayoni sifatida taqdim etilib, aslida quyidagicha o'qiladi: "Va odamlar orasida (yurib ularni) hajga chaqirgin, ular senga (ya'ni, sening da'vatingga javoban) yayov hollarida va barcha yiroq yo'llardan keladigan oriqlardan toygan tuyalar ustida kelurlar"⁴² (Qur'on, 22: 27); Sharq ayollarini tasvirlar ekan, Bunin tasvir manbasini yashirmaydi: "Ularning yuzlari, menimcha, Qur'on ta'biri bilan aytganda, qumda saqlangan tuyaqush tuxumiga o'xshaydi"⁴³ (Qur'on, 37: 49); Ayo-Sofiya jome masjidini o'z ko'zi bilan ko'rgan paytida keltirgan: "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan! Hamd-u sano butun olamlar hojasi, Qiyomat va Ajr kunining egasi – podshohi bo'lmish Alloh uchundir!"⁴⁴ iborasining mos shakli Qur'onning birinchi, ochuvchi surasida taqdim etilgan (Qur'on, 1: 1–7). Bunin nafaqat Muqaddas qadamjolar haqidagi taassurotlarini yetkazadi, balki qadimiy Bitiklarga muvofiq insoniyatning shakllanish tarixini tahlil qiluvchi kuchli mutafakkir sifatida ham maydonga chiqadi. Uning konseptual qarashlari Yakka-yu yagona Xudoni chuqur anglashida shakllanib, insoniyatning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tish g'oyasini tasdiqlaydi. Bunin manzaralarni ajoyib tarzda, muvaffaqiyatli tasvirlaydi, ularda muallif tavsifi va bahosi sezilarli darajada mukammallikka erishadi. Misol uchun, "Tosh" ocherkining ikkinchi bobida Yig'i devorini tasvirlab, Bunin insoniy kayfiyatlarni ifodalashda o'ziga xos mukammallikka erishadi. Yahudiylar uchun muqaddas joy – Yahova ibodatxonasining qoldiqlari haqida gapirganda, biz Bunin dunyoqarashida ko'p narsalarni tushuna boshlaymiz, uning dunyosi va Xudoga bo'lgan munosabati konsepsiyasini idrok eta boshlaymiz: "Ertalablari bu yerda soya bo'ladi. Bir necha akatsiyaning yashilligi Quddus ko'kalamzorlari unut bo'lgan ko'zlarga quvonch bag'ishlaydi. Osmon quvnoq ko'k ko'zlari bilan yuqoridan qaraydi. Ammo devor ostida, uning son-sanoqsiz lablar bilan sayqallangan tillarang toshlari ostida tinimsiz nola, titroqli manqa fig'on, g'am-g'ussaga to'la hasrat va gap-so'zlar eshitilib turadi... Kimdir boshin changallab, oyoqlari bilan yer

⁴⁰ Айхенвальд Ю.И. Иван Бунин // Айхенвальд Ю.И. Силуэты русских писателей: в 2 т. – М.: Терра, 1998. – Т. 2. – С. 113-126.

⁴¹ Бунин И.А. Тень птицы. Собр. соч. в 4 т. – М., 1988. – Т.2. – С.9.

⁴² Коран. Перевод смыслов и комментарии Э.Кулиева. – М., 2002.

⁴³ Бунин И.А. Тень птицы. Собр. соч. в 4 т. – М., 1988. – Т.2. – С.15.

⁴⁴ Бунин И.А. Тень птицы. Собр. соч. в 4 т. – М., 1988. – Т.2. – С.20.

tepkilab yig'layotganida, boshqalar esa ochko'zlarcha o'paman deb devorni burkab olishadi, quvonchdan ayyuhannos solib o'rnidan sakrab turishadi va chapak chalib yuborishadi..."⁴⁵. Ushbu matn parchasida Bunin o'zining inson zotiga bo'lgan chuqur kechinmalari va e'tirozlarining deyarli butun majmuasini ifodalaydi. Xudodan rahmshafqat so'rayotgan ojiz, nochor insonlar obrazi yozuvchining baholovchi-tasviriy lug'ati bilan to'lib-toshgan bo'lib, unda "g'am-g'ussaga to'la hasrat va gap-so'zlar", "tinimsiz nola", "titroqli manqa fig'on" inson zoti hurmatini oshirmaydi. Mana nima uchun tavsifda bunchalik ko'p istehzo uchraydi, mana nima uchun bunchalik muhim qaramaqarshi ohanglar zarur: yuqori (ko'k osmon va yashil akatsiyalar) va iflos, yoqimsiz pastlik (manqa, o'rnidan sakrab turayotgan va chapak chalayotgan odamlar). Buninning Xudo, dunyo va inson haqidagi nasriy mulohazalarida Xudo zolim podshoh emas, balki, birinchi navbatda, insonni o'z e'tibori bilan o'rab turgan g'amxo'r ustoz sifatida namoyon bo'ladi. Bunin taxminlarga asoslangan xato fikrdan yiroqlashadi, uning mulohazalari insoniyatning tarixdagi o'z o'rnini anglashi uchun juda muhim bo'lgan dunyoni tushunishning yagona konsepsiyasini yaratish haqidagi yangi fikrlar bilan to'ldiriladi. Uning ocherklarining tarkibiy mazmuniga chuqur kirib borib, biz Bunin uchun Sharq barcha narsaning boshlanishi bo'lgan, degan xulosaga kelamiz.

“Buninning musulmon Sharqi konsepsiyasida Muhammad payg'ambar (s.a.v.) obrazi” nomli 4.3. paragrafda yozuvchining musulmonlar payg'ambari Muhammad (s.a.v.) obrazini tushunishga yondashuvining ko'p jihatliligi taqdim etilgan. Bunin o'zining barcha taqdimotlarida Muhammad (s.a.v.)ning faoliyati haqida gapirar ekan, uni dunyoning eng teran va maxsus odami sifatida ko'rsatar ekan, Payg'ambar siymosiga ikki tomonlama yondashadi. Sharqona materiallar asosida yaratgan she'riy asarlarida u Muhammad (s.a.v.)ga chuqur hurmat bajo keltiradi va, bir tomondan, uning bashoratini va shu bilan siymosining muqaddasligi va ilohiyligini ta'kidlasa, ikkinchi tomondan, Bunin uni odatdagi inson va kelib chiqishi yerlik ekanini qayd etadi. Payg'ambar siymosiga asosiy o'rin ajratilgan bir qator asarlarida (“Oq qanotlar”, “Yashil bayroq”, “Sir”, “Parada”, “Muhammad hijratda”) Muhammad (s.a.v.)ning hayoti juda oddiy va odatdagidek bo'lganligini ta'kidlaydi. Bunin musulmonlar payg'ambari siymosiga bag'ishlangan she'rlarini ushbu yo'lning murakkabligini anglash bilan to'ldiradi. Muhammad payg'ambar (s.a.v.), insoniyatning barcha Muqaddas payg'ambarlari kabi, o'z hayot yo'lini azob-uqubatda bosib o'tgan va bu uning hayotini payg'ambarlarga xos qilgan, – deydi Bunin. O'ylaymizki, serqirra Bunin “bu dinni ichki dunyosidan o'tkazib, islomiy uslubni o'ziga singdirgan”⁴⁶, deyishga yetarlicha asos bor. Shu nuqtayi nazardan, uning she'riyati hech qanday analitik mulohazalarsiz bizga shunday she'riyatni ochib beradiki, unda insoniyatning ilohiy kitoblari va, xususan, Qur'oni Karimning yuksak ma'nolarini tushunishga harakat qilinadi. Shu yillarning barchasi davomida sharqshunoslikning ushbu turi shoir Bunin uchun dolzarb bo'lib qoladi, chunki uning Qur'ondan o'zlashtirmalari dunyoning yangicha poetik manzarasini mutlaqo qayta ko'rib chiqish va yaratishda o'ziga xos xarakter kasb etadi. Qur'onning asl matni va 8 – “Al-Anfol”, 2 – “Baqara”, 17 – “Al-Isro” va h.k. suralar bilan ishlayotib, Bunin tashqi manbalarning mutlaq parallelligi va tengligini saqlab qoladi:

⁴⁵ Бунин И. Камень. Собр. соч. в 4 т. – М., 1988. – С.59.

⁴⁶ Двинятина Т.М. Поэзия И.А.Бунина: Эволюция. Поэтика. Текстология. Диссерт. на соиск...докт. фил. наук. – СПб, 2015.

ularning har biri maxsus matn yaratish uchun xizmat qiladi; ularda anglash ekzotikasi saqlanib qolgan holda rus adabiyotining eng muhim matni, voqelikni yangicha anglash ijodiy qayta ishlangan holda shakllanadi. Rus adabiyoti uchun muhim bo'lgan payg'ambarlik mavzusini hal qilish ustida mulohaza yuritayotib, Bunin bu muammoni yechishga bor mas'uliyati bilan yondashadi. Uning Payg'ambar siymosini yaratish ustida olib borgan ishi, shubhasiz, rus adabiyotining eng sara vakillari – Pushkin va Lermontov an'analarini davom ettiradi. Bu muammoni hal qilishda uning Qur'oni Karimdan olganlari dunyoning yangicha poetik manzarasini mutlaqo qayta ko'rib chiqish va yaratishda ahamiyat kasb etadi. U sujetni nafaqat an'anaviy tarzda qayta ishlaydi, balki o'rganilayotgan materialdan uzoqlashmay, qur'oniy motiv va obrazlarga o'ta ehtiyotkorlik va odob bilan yondashib, haqiqatni quvvatlagan holda voqelik haqida mulohaza yuritadi. Agar biz faqat va faqat “an'analar vorisi” borasida so'zlaydigan bo'lsak, uning Payg'ambar siymosi va u haqidagi qarashlari Bunin she'riy tizimining biz kutgandan ham ko'ra ko'proq harakatchan va moslashuvchan ekanligidan darak beradi.

“I.Bunning qur'oniy merosi konseptlari” nomli 4.4. paragrafda Bunning maxsus sharqona dunyo makonini yaratishga bo'lgan yondashuvi xususiyatlari: uning poetik olami intertekstual texnika bilan mukammallashgani, rus she'riyatining an'anaviy badiiy olamiga o'ziga “begona” bo'lgan talmihlarni jalb etgani va bu materialda turli darajadagi “klassitsizm”ni birlashtirib, yangi she'riy ma'nolar yasagani ochib berilgan. Uning she'riy tizimi kunduz va tun, mavjudlik va yo'qlik, cho'l va voha, suv va suvsizlik, cho'l va samum kabi sharqona qarama-qarshiliklarga beriluvchan bo'lib chiqdi. Bu dunyoni o'z realiyalari, o'ziga xos dunyoqarash bilan to'ldirib, bunday qarama-qarshiliklar orasida joylashgan olamlarni birlashtiradi. Uning Sharqi sharqona, ichki va tashqi ekskluzivliklarning barcha nozik turlari va farqlarini aniq ko'rsatib, yangi dunyo belgilarini ochib beradi. Bunin o'zining ulkan boyligi va xilma-xilligi tufayli o'zlashtirilishi lozim bo'lgan yangi poetik makonning paydo bo'lishi haqida ma'lum qiladi. Rus adabiyoti retsepsiyasi, xususan, Bunin asarlarida jahon madaniyati tajribasining muhim qismlari bo'lgan Qur'oni Karimning ma'naviy konstantalari o'ziga xos reprezentativ darajaga ega ekanligini hisobga olsak, Bunning Sharq, Sir, Hayot, O'lim, Payg'ambar, Cho'l, Tamjid, Ko'za, Samum, Qadr va h.k. kabi individual mualliflik konseptlari haqida gapirish mumkin bo'ladi. Ushbu “konseptlar” yozuvchi badiiy konseptosferasining muhim unsurlari bo'lib, asosiy madaniy va adabiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi, shuningdek, Muqaddas kitob – Qur'oni Karim qadriyatlarini, Bunning individual idrok etish xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Bunin Qur'onning masal va ibratli hikmatlari, arab Sharqi afsonalari bilan bog'liq quyidagi o'n to'qqizta she'rdan tashkil topgan “Islom” to'plamini yaratadi: “Yo'l ko'rsatuvchi belgilar” (1903–1906), “Cho'ponlar” (1905), “Sarob” (1903), “Ka'baning qora toshi” (1903–1905), “Donolarga” (1903–1906), “Yashil bayroq” (1903–1906), “Muqaddas xok” (1903–1906), “Xiyonat uchun” (1903–1905), “Ibrohim” (1903–1906), “Qadr kechasi” (1903), “Iblisning Allohga isyoni” (1903–1906), “Jinlar” (1903–1906); “Zaynab” (1903–1906), “Tog' yonbag'ri” (1903–1904), “Oq qanotlar” (1903–1906), “Sofiya qabri” (1903–1905), “Tamjid” (1905), “Qush” (1903–1906), “Sir” (1905). Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan matnlarning barchasida Bunin dunyoga yangicha qarash muammosining teranligini tushunadi, odamlarning imonsizligidan g'azablanadi va bundan tashqari: shoir Muqaddas kitob – Qur'oni Karimning

muhimligini ta'kidlab, uning mo'jizaviylikini tan oladi. "Qur'oni Karim amrlarini eshitmaydiganlarga la'nat bo'lsin..."⁴⁷ – bu matn Haqiqatni yangicha tushunishga undaydi, musulmon Sharqining ong arxetiplariga kirib boradi va Qur'onning yagona yaratuvchisi Alloh ekanligini ta'kidlaydi.

Bunin diniy kodlarga kirib borishga urinib ko'radi va Qur'on Sirlari tushunchasini ochib berishga harakat qiladi. Tadqiqot matnida keltirilgan jadval bu sirli kod va shifrlarning Muqaddas kitobda ishlatilish xususiyatlarini oshkor qiladi hamda bu yo'nalishda ish olib borish zarurligi va muhimligini isbotlab beradi. Ma'lumki, Qur'onning ba'zi suralari boshida "Alif-Lom-Mim" degan sirli kodlashtirilgan harflar mavjud (Qur'on, 29:1; 30:1; 31:1; 32:1)⁴⁸. Bunin bu so'zlarni o'z she'ri uchun epigraf sifatida oladi. Bu she'riy matn musulmon Sharqining o'ziga xos mohiyatini yuzaga chiqaradi. Ba'zi ilohiyotshunos olimlar yuqoridan kelgan hamma narsa Allohdan kelgan shubhasiz Haqiqat sifatida qabul qilinishi kerak degan pozitsiyaga amal qilib, bu harf birikmalarini sharhlashdan bosh tortgan. Natijada, bu sirli belgilar bugungi kungacha Alloh va Payg'ambar o'rtasidagi sir, "sehrli harflar", "Qur'on mo'jizasi ko'rsatkichi", "Allohning buyuk ismi", "ogohlantirish" sifatida qabul qilinadigan maxsus terminlarga aylandi. Tabatabai "bu terminlarning barchasi o'z ma'nolarida ishonchli emas, chunki ularga dalil yo'q"⁴⁹ degan fikrni bildirgan. Aftidan, Qur'oni Karimni diqqat bilan o'qib chiqqan Bunin ko'plab mufassir va mutarjimlardan oldinroq sirli arab harflari insoniyat buyuk Kitobining mazmun va mohiyatini ochib beruvchi allaqanday bir ma'naviy kod bo'lishi mumkinligini tushunib yetgan.

Paragrafda Qur'oni Karimga bo'lgan ishtiyoq Bunin uchun Tavrotda keltirilgan Xudo g'oyalarining mantiqiy yakuni ekanligi, bu Muqaddas kitob u tomonidan dunyo polifonizmining alohida ahamiyatga molik belgisi sifatida qabul qilinganligi ta'kidlangan. Aynan Qur'oni Karim Injil bilan birga Bunin uchun haqiqat ifodasiga va madaniy parametrlarning bunday ikki hissa oshishi hayot haqidagi universal haqiqatni idrok etishning ajoyib daliliga aylandi.

Boy va murakkab arab tilini kiritish orqali o'zining she'riy texnikasini murakkablashtirgan Bunin butun lirik kechinma tuzilishining o'zini ham o'zgartirib, uni Qur'oni Karimning hissiyotga to'la munosabatlari bilan to'ldiradi: Qur'on – "Qayyum Rabbim, sahro ko'kida yoygin / Sayyoralar kitobi – bizning Qur'onni!"; Alif. Lom. Mim – "Va dedi u: "Mening shiorim dahshatli / U sirlarning siri: Alif. Lom. Mim"; Laylat ul-Qadr – "Qadr tuni. Ko'klar yaqinlashib, yerla yakdil bo'lishar / Mo'minlarning dastorlari esa ko'kka yetadi o'sib"; Jannat – "Cheki yo'q shu'lalarga yer qapishib yig'lagay / Qalbi jannat bog'iga ketgan shodlanishlarga" yoki Ka'ba toshi – "Qachonlardir nodir xarsang bo'lgan ul / Biron-bir dog'dan asar topilmas oppoq – / Xushbaxt jannatdagi misoli bir gul"; Zaynab – "Zaynab, ko'zlar quvonchi! / Sen – arab ko'zasi. / Sahro chodiri qanchalik dim bo'lmasin, / Jazirama xamsin qanchalik shiddat ila esmasin, / Ko'za suvi shunchalik salqin bo'lur"; darvesh – "Tong sahardan toki / Qosh qoraygan payt / Darveshlar turgaylar va minorada / Qadim madhiya, muqaddas Tamjidni kuylar"; Makka, Ehrom – "Lekin qo'rqma: tongda Makkani ko'rursan / Va Ehromga kirursan"⁵⁰

⁴⁷ Бунин И.А. Собр. соч. в 4 т. – М., 1988. – Т.1. – С.94.

⁴⁸ Коран. Перевод смыслов и комментарии И.В.Пороховой. – М., 2001.

⁴⁹ Табатабаи Алламе. Тайны исламского монотеизма. – М.: Изд. «Исток», 2010. – С. 116.

⁵⁰ Бунин И.А. Собр. соч. в 4 т. – М., 1988. – Т.1.

va hokazo. Shuni ta'kidlash kerakki, shoir ishlatgan arabcha so'z va iboralar tasodifan tanlanmagan. U o'z nuqtayi nazaridan butun bashariyat makoni umumiyligi va birligini bildirish uchun maxsus ma'naviy tarkibga ega eng muhim tushunchalarni oladi. Bu tushunchalar rus tilida begona tuyulmaydi, ammo juda organik tarzda umumiy matnga kiritilganda, ko'pchilik uchun yoqimli va tushunarli polifoniya hosil qiladi. XX asr boshida yashab, ijod qilgan bu noyob shoirning bugun ham "rus she'riyatining asosiy musulmoni"⁵¹ sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Buninning Muqaddas kitobdan olgan g'oyalarni tadqiqotchilar novatorlik g'oyalari deb ta'riflaydilar.

I.A.Bunin ijodidagi "sharqona" she'rlar soni jahon madaniyati tarixidagi favqulodda hodisadir. Sharq dunyosi, dinlari, makoniy belgilari, geografik tarkibiy qismlarining turli-turliligini Bunin yagona madaniy-metafizik makon sifatida idrok qilgan. Aynan mana shu yondashuv tadqiqotchilar tomonidan uning ijodiy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan bo'lib, ular aynan shunda uning birikmaydiganlarni birlashtirish va bunda umuminsoniy ahamiyatni topishdagi bitmas-tuganmas iste'dodini ko'rishgan.

XULOSA

1. Barcha davrlarda turli millatli madaniyatlar muloqoti insoniyatning eng yuqori va abadiy qadriyatlaridan biri bo'lib kelgan va hozirda ham shundayligicha qolmoqda. Madaniyatlararo muloqot muammolari ushbu muloqotni yaratish, ulardan insoniyat tamadduni jarayonidagi eng muhimlarini birlashtirishdan iborat. Xalqlar tili, madaniyati va muloqotining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri natijasining murakkab tizimini ifodalovchi madaniyatlararo kommunikatsiya mamlakatlarning yagona bir sivilizatsion butunlikka birlashishiga hissa qo'shuvchi interatsion omil sifatida qabul qilinadi. Madaniyatlar o'zaro ta'sirining ana shu umumbashariy komponentlari madaniyatlararo kommunikatsiya regulativlari bo'lib, Sharq va Rossiyaning ikki dunyoqarashi o'rtasidagi madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini aniqlash bizga madaniyatlarning o'zaro ta'siri va bir-biriga o'tishi xususiyatlarini tushunishning ahamiyati va zarurligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu rus madaniyati, og'zaki hamda yozma adabiyotida Sharqni badiiy anglashning bir qator dominantlarini, rus adabiyotida o'z aksini topgan madaniyatlararo dialogga tayanch bo'luvchi tadqiqot asoslarini aniqlashga yordam beradi.

2. Adabiy kategoriya sifatida madaniyatlararo kommunikatsiya badiiy asarda ifodalangan his-tuyg'ular, g'oyalar majmuyini takrorlovchi hamda bir madaniyatdan boshqasiga ko'chib o'tgan sujetlar, obrazlar, motivlar yig'indisidir. Mazkur tushuncha tillar, madaniyatlar, Muqaddas kitoblar motiv va mavzularining, adabiyotlar xilma-xilligi ta'siri natijasining murakkab tizimi bo'lib, u, bir tomondan, madaniyatning universallasuvi va individuallasuviga olib keladi, ikkinchidan, madaniyatlarning bir butunlikka birlashuviga ko'maklashadi.

3. Madaniyatlararo kommunikatsiya sivilizatsion dunyo tarkibiy qismlarini tushunish uchun muhim madaniy muloqotlar tizimini yaratgan holda tafakkurning yangi muloqot tipi paydo bo'lganini qayd qiladi va bunday muloqot turi, Baxtin nuqtayi nazarida, "o'zinikini o'zganiki orqali" idrok etishga asoslangan dunyoning o'ziga xos

⁵¹ Пруссаков В. «Литературная газета», № 9, 2005.

rivojlanishidan darak beradi. Madaniyatlararo muloqot muammolarini ma'naviy va axloqiy tartibga solishda "madaniyatlararo muloqot", "o'zaro ta'sir", "madaniyatlararo ta'sirning umuminsoniy elementlari", kontaminatsiya va ijodiy qayta anglash jarayonining dominantiga aylanib bormoqda.

4. Rus adabiyoti Qur'oni Karimning madaniy shifrlari va kodlari bilan aloqaga kirishishi, badiiy o'ziga xosligi va ma'no-mazmunining teranligi bilan ajralib turuvchi yangi matnni qayta ishlashi va yaratishi bilan Sharqni o'zlashtirishda badiiylarning o'ziga xos parametri – madaniy kodlarning ikki hissa oshishiga ega bo'ladi. Yangi haqiqatlarni o'zlashtirishning bunday hayotiy jihatlari dunyoning eng yuksak ma'naviy qadriyatlarini tushunish va hurmat qilish yo'lidagi muhim o'zaro hamkorlik muammosini hal qilishga yaqinlashgan yozuvchilar ijodini yangicha ko'rishga imkon berdi. Aloqa qilish, ishtirok etish, idrok etish va qayta yaratish orqali arab Sharqi va rus madaniyati hamda adabiyoti turli madaniy va mental kodlarining o'zaro ta'sirlashuvi sodir bo'ladiki, bu madaniyatlar o'zaro ta'sirining ana shu umumbashariy komponentlari madaniyatlararo kommunikatsiya regulativlari, Qur'oni Karim haqiqatlarining rus adabiyoti tomonidan o'qilishi va o'zlashtirilishida universallashtirishning asosiy momentlari bo'lib xizmat qiladi, deb ta'kidlash imkonini beradi.

5. Rus adabiyoti va madaniyatidagi qur'oniy motivlar va obrazlarni tadqiq qilish rus-adabiy Sharqi tushunchasining mazmun-mohiyatiga kirib borish uchun birdan bir imkoniyat beradi. Bunda ikki madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning alohida kategorial tuzilmasini yaratish bilan ongning yangi turlarini shakllantiradigan, binar, sharqona konsepsiyalarga ega yagona dunyo makoni xususida fikr yuritishimiz mumkin bo'ladi. Aloqalar tuzilmaviy darajasining iyerarxik bo'ysunishi doirasida A.Pushkin, M.Lermontov, I.Buninning alohida she'riy asarlari orqali tamaddun turlari (Sharq – G'arb – Rossiya) tahlili Sharq va uning Muqaddas kitobi – Qur'oni Karim bilan o'zaro madaniy ta'sirning yorqin ko'rinishlari sifatida taqdim etiladi.

6. Pushkin tomonidan Qur'oni Karimning tadqiq etilishida asosiy tushuncha u Qur'oni Karimda kashf etgan axloqiy qadriyatlarning yangi olamiga shoir qiziqishining aksiologik nazariyasi hisoblanadi. Taqlid uchun eng muhim mavzular obyekti, adabiy ijodning eng teran va hayotiy zarur manbasi sifatida Qur'oniy motivlar Pushkinning poetik dunyosiga kirib boradi. Uning "Qur'onga tatabbu'lar"i sikli qur'oniy, injiliy, agiografik, antik va avtobiografik motivlarning murakkab sintezi, asl manba xususiyati bilan shartlangan o'ziga xos subyektiv tuzilishga ega she'riy sikldir: Qur'onda Alloh nomidan yoki uning payg'ambarlari nomidan hikoya qilinadi. Pushkinning "Tatabbu'lar"i murakkab subyektiv tashkiliy qismga ega: unda lirik qahramon ovozidan tashqari, Alloh va Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning ovozi ham eshitiladi, uch ongning murakkab dialogi namoyon bo'ladi, siklning o'ziga xos ko'p ovozliligini ta'minlagan alohida ovozlilar birlashishi, birga eshitilishi mumkin.

7. A.S.Pushkinning "Payg'ambar" she'ri rus va jahon adabiyotida payg'ambarlik mavzusini tushunish murakkab paradigmasining yana bir yechimidir. "Shoir-payg'ambar" murakkab tushunchasi haqida pushkincha motivlar va konseptual mulohazalar Payg'ambar siymosini musulmonlarning bosh payg'ambari – Muhammad (s.a.v.) biografiyasi bilan bevosita bog'lash nuqtayi nazaridan tadqiqotda yangi ma'naviy rivoj oladi, bunda qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tekstologik tahlil orqali haqiqatni

anglash va Pushkin she'riy matnining qiziqarli faktlar va xulosalar bilan to'lishi sodir bo'ladi.

8. Qur'oni Karim rivoyatlari va ularga Pushkinning e'tibor qaratishi rus jamiyatining sirli Sharqqa qiziqishi ortishiga sabab bo'ldi. Pushkin davri shoirlari Lukyan Yakubovich, Yakov Polonskiy, Nikolay Grekov, Mixail Mixaylov, Lev Kobilinskiy-Ellis tomonidan Sharqning tushunilishi va idrok etilishi Pushkinning haqiqat izlashi bilan monanddir. Ularning asarlari umumiy nom bilan "Qur'ondan" deb atala boshlandi. Qur'onning asosiy mavzulariga to'xtalar ekan, shoirlar uning poetikasiga xos janr-stilistik xususiyatlarga e'tibor qaratadilar, musulmonlarning "ilohiy kitobi"ga xos ritorik oborotlardan badiiy ifodalilikni kuchaytirish uchun foydalanadilar, bir qator motivlar va obrazlarni transformatsiya qiladilar. Biz keltirgan parallellar shundan dalolat beradiki, ushbu she'riy matnlar (Pushkindan keyin) Qur'oni Karimni o'zlashtirish va uning narrativ salohiyatini ochib berish an'analarini davom ettiradi. Bu rus adabiyotining ko'plab asarlariga Qur'oni Karim axloqiy "kod" bo'ladi, degan qat'iy ishonch hosil qilishimizga imkon beradi.

9. Aloqa qilish, ishtirok etish va anglash orqali adabiyotlarning o'zaro ta'sirlashuvi kategoriyalari rus adabiyotining boshqa bir genial vakili – Lermontov ijodini belgilashda muhim dominantalar hisoblanadi. Uning ijodiy laboratoriyasida turli madaniy va mental kodlar o'zaro ta'siri sodir bo'lib, unda Lermontovning o'zga moddiy va ma'naviy parametrlarni idrok etib dunyoni nasroniylarcha tushunishi shoirga sharqona madaniyatni idrok etishda yevropacha turg'un stereotiplardan uzoqlashishga yordam beradi, u sharqona qadriyatlarni idrok etishning yangi paradigmalarni o'zlashtirib oladi. Lermontov uchun Kavkaz Sharq va barcha sharqona narsalar tajassumi (aloqa qilish) bo'lib, odamlar, turmush tarzi, til, urf-odatlar va an'analar (ishtirok etish) orqali uning teran qalbi taqdir, shaxsiyat va erkinlikning oldindan belgilab qo'yilganligi, cheksiz iroda, an'analar, qismat va nafrat hukmronligi, g'arbona va sharqona madaniyatlar konflikti (anglash) muammolarini o'ziga singdiradi. U o'zining genial o'tmishdoshi Pushkin singari o'z milliyligi orqali Sharqni konseptual-ma'naviy idrok etishning o'ziga xos simbiozini yaratadi. Aynan shu idrok keyinchalik G'arb–Sharq sintezi yoki uning badiiy asarlarida aks ettirilgan "dunyoni ikki millatli idrok etish" deb nomlanadi.

10. Lermontovning ijodiy merosidan o'rin olgan iblis muammosini hal qilish taqdir va hayotning sharqona oldindan belgilab qo'yilgani haqidagi lermontovcha konseptni tushunishni belgilab beradigan muhim omillar sirasiga kiradi. Ikkita eng murakkab taqdir tushunchasi, bitta konseptning mutlaqo ikki xil tushunilishini ko'rib chiqayotib, Lermontov qur'oniy hikoyalar prizmasi orqali taqdirning yangi qur'oniy mifologemasini anglab yetadi. Iblis muammosini hal qilishda nasroniylar va musulmonlarning ikki xil diniy falsafasi to'qnashuvi Lermontov ijodida mentalitetning sharqona kodlarini uyg'unlashtirgan maxsus ma'naviy mazmun kasb etadi.

11. Bunin ijodining markaziy muammolaridan biri Sharq bo'lib, u tomonidan yagona madaniy-metafizik makon buyuk insoniyat kelajagining sivilizatsiyaviy tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan. Buninning Sharqni tushunishi go'zallikni chuqur anglashida rivojlanadi, uning diqqat markazida Sharqning ruhi va mohiyati, uning sirlari va o'ziga xos muqaddasligi turadi: bu "yashil bayroq" – Muhammad (s.a.v.) bayrog'i, "alif, lom, mim" – Qur'onning sirli belgilari, "Saqar" – jahannam o'ti, "Jinnat" (Jannat) – Jannatning belgisi, "Al-Kavsar" – Jannatdagi to'kinlik daryosi, xushbo'y mushk hidi,

“Jannatul-Huld” – Mangulik bog‘i; “Jannatul-Mavo” – Panoh bog‘i; “Jannatan-Naim” – Saodat bog‘i va h.k. Sharqning maxsus kodlarini yaratish va Qur‘oni Karim hikoyalarini qayta ishlash orqali Bunin Yevropaga Sharqning qalbini, uning sirli va muqaddas tabiatini oshkor qiladi. Muhimi, Buninning deyarli barcha sharqona she‘rlari o‘ziga xos qur‘oniy mazmunga ega bo‘lib, buyuk Muqaddas kitobning ruhi va mohiyatini ochib beradi.

12. Bunin she‘rlarining sharqona siklida, o‘z o‘tmishdoshlaridagi kabi, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) obrazi alohida o‘rin tutadi. Bu muammoni hal qilish borasidagi Bunin konsepsiyasi yondashuvning ko‘p jihatligi va sharhning kategorialligi, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) qiziqishlarining ko‘p qirraliligi va keng doirasini aniqlashdan iborat. Muhammad (s.a.v.) shaxsi haqida gapirib, uni teran va o‘tkir faylasuf sifatida tasvirlar ekan, Bunin uning shaxsiyatiga ikki tomonlama yondashadi: bir tomondan, uning siymosining muqaddasligi va ilohiyligini qayd etsa, ikkinchi tomondan, uning odatdagi inson va kelib chiqishi yerlik ekanini ta‘kidlaydi. Azob va uqubatlar payg‘ambarlik hayotini belgilaydi, degan da‘vo bilan u o‘z o‘tmishdoshlari: Pushkin va Lermontov an‘analarini davom ettiradi.

13. Bunin maxsus sharqona dunyo makonini yaratadi: uning poetik olami intertekstual texnika bilan mukammallashgan, rus she‘riyatining an‘anaviy badiiy olamiga “begona” bo‘lgan talmihlarni jalb etadi va bu materialda turli darajadagi “klassitsizm”ni birlashtirib, yangi she‘riy ma’nolar hosil qiladi. Uning she‘riy tizimi kunduz va tun, mavjudlik va yo‘qlik, cho‘l va voha, suv va suvsizlik, cho‘l va samum kabi sharqona qarama-qarshiliklarga beriluvchan bo‘lib chiqdi. Sharq dunyosini o‘z realiyalari, o‘ziga xos dunyoqarash bilan to‘ldirib, Bunin bunday qarama-qarshiliklar orasida joylashgan olamlarni birlashtiradi. Uning Sharqi sharqona, ichki va tashqi ekskluzivliklarning barcha nozik turlari va farqlarini aniq ko‘rsatib, yangi dunyo realiyalarini ochib beradi. Bunin o‘zining ulkan boyligi va xilma-xilligi tufayli o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan yangi poetik makonning paydo bo‘lishi haqida ma‘lum qiladi.

14. Rus adabiyotidagi qur‘oniy motivlarni o‘rganish rus madaniyati fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, rassomning ijodiy ongidagi sinkretizmga, turli madaniy davrlar va an‘analarning ma‘naviy sinteziga qaratilgan. Rus adabiyoti retsepsiyasi, xususan, Bunin asarlarida jahon madaniyati tajribasining muhim qismlari bo‘lgan Qur‘onning ma‘naviy konstantalari o‘ziga xos reprezentativ darajaga ega ekanligini hisobga olsak, Buninning Sharq, Sir, Hayot, O‘lim, Payg‘ambar, Cho‘l, Tamjid, Ko‘za, Samum, Qadr va h.k. kabi individual mualliflik konseptlari haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Ushbu “konseptlar” yozuvchi badiiy konseptosferasining muhim unsurlari bo‘lib, asosiy madaniy va adabiy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi, shuningdek, Muqaddas kitob – Qur‘oni Karim qadriyatlarini, Buninning individual idrok etishi xususiyatlarini ko‘rsatib beradi.

15. O‘tkazilgan tadqiqot davomida rus adabiyotidagi, xususan, Pushkin, Lermontov, Bunin ijodiy merosidagi qur‘oniy motivlarni qiyosiy-tarixiy va germeneytik tahlil qilish metodikasi ishlab chiqildi. Uning o‘ziga xosligi badiiy matnning alohida ma‘naviy va tuzilmaviy birliklarini aniqlash, bir milliy madaniyatda o‘sib-ulg‘aygan va Muqaddas kitobdan iqtibos sifatida olingan talmih va reminissensiyalarni o‘zlashtirish orqali boshqa milliy madaniyatning me‘yorlari va qadriyatlarini egallagan shaxsni ifodalaydigan tizimli yondashuv paradigmasini tahlil qilish, qur‘oniy matn ifodasining

asosiy tipologik o'xshashliklarini taqqoslash, "o'z" va "begona" so'zning dialogik munosabatlari variantlarini ochib beruvchi maxsus pozitsiyalardan foydalanishdan iborat.

16. Qiyosiy-tarixiy va germeneytik tahlilning ishlab chiqilgan metodikasi madaniyatlararo kommunikatsiyaning bir qator muhim muammolarini ham adabiy, ham kulturologik jihatdan tadqiq qilishda qo'llanilishi mumkin. Qur'oni Karimning rus va boshqa jahon adabiyotlariga ta'siri muammolarini o'rganish qiyosiy va solishtirma adabiyotshunoslik muammolari doirasini kengaytirish, zamonaviy komparativistikada qo'llaniladigan ushbu ilmiy yo'nalishlarni o'rganish tarixini ochib berish, yot mentalitetning sharqona kodlari va milliy adabiyotlarning jahon adabiy jarayoni bilan bog'liq o'zaro ta'sirining eng muhim tamoyillarini o'rganish usullarini belgilash imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

**НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

РАХМАНОВА АЛЬБИНА ХОДЖАЕВНА

**КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ КАК
ЯВЛЕНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ
(А.С.Пушкин, М.Ю.Лермонтов, И.А.Бунин)**

10.00.04. – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

ТАШКЕНТ – 2023

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2021.1.DSc/Fil 292.

Докторская диссертация выполнена в Навоийском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (русский, узбекский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: **Петрухина Наталья Михайловна**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Камилова Саодат Эргашевна**
доктор филологических наук, профессор

Журакулов Узокбой Хайдарович
доктор филологических наук, доцент

Гарипова Гульчира Талгатовна
доктор филологических наук, доцент (Россия)

Ведущая организация: **Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2023 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, Ташкент, улица Фарабий, 400. Тел.: (+998) 71-246-08-62; факс: (+998) 71-246-65-21; e-mail: наука@nuu.uz. Факультет зарубежной филологии Национального университета Узбекистана, 1-й этаж, 117-я аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (рег. № ____). Адрес: 100174, Ташкент, улица Фарабий, 400. Тел.: (+998) 71-246-08-62; (+998) 71-246-67-71.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2023 года.

(Реестр протокол рассылки № ____ от « ____ » _____ 2023 года).

А.Г.Шереметьева
председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, док.
филол. наук, профессор

Н.Э.Абдуллаева
ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, док.
философии по филол. наукам (PhD),
доцент

И.А.Сиддикова
председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, док. филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в мировой филологической науке проблемы развития межкультурной коммуникации и ее перспективы представляют особый интерес. Информационные технологии, потребность в интенсивной коммуникации обуславливают сегодня развитие научной парадигмы взаимосоотнесенных и интегрированных сфер гуманитарной области: литературоведения, культуры, лингвистики, психологии, философии и т.д. В этой связи, проблемы развития и специфики межкультурной коммуникации в осознании важнейших Книг человечества, Священных писаний, становятся особенно важными в связи с расширением информационных сфер влияния, с глобализацией общества и интеграцией различных культур, средоточием научных поисков решения культурного взаимодействия и понимания.

В литературоведении большое значение приобретают проблемы изучения коранических мотивов как важного явления межкультурной коммуникации. Литературоведческие аспекты данного направления становятся платформой многих научных исследований и поисков, так как проблемное поле ее деятельности призвано решать вопросы ценностного приоритета взаимодействия культур как главного предмета межкультурных связей человечества. Эти исследования затрагивают, помимо чисто литературоведческих, сразу нескольких областей: коммуникативистику, антропологию, этно-, социо- и психолингвистику, семиотику, психологию культуры, лингвокультурологию, лингводидактику, герменевтику и т.д. и представляют, насколько объемны и широки спектры развития данного направления.

В Узбекистане повышенный интерес к изучению Священного Писания и проблемам межкультурной коммуникации связан, в первую очередь, с тем, что процесс международной интеграции выдвигает на первый план изучение этнокультурного своеобразия различных мировых сообществ. Многонациональному Узбекистану, объединяющему множество этносов, принадлежащих к различным культурам, необходимо выстроить продуктивную систему межкультурного диалога, переосмыслить имеющийся опыт и выработать новые пути взаимобогащения культур, и в этом аспекте исследование подобного взаимодействия приобретают черты новой модели взаимоотношений народа.

В последние годы подобные изыскания получают поддержку и в нашем государстве, поскольку категории изучения и сохранения высших духовных ценностей, идущих из глубины веков – Священных Писаний, непосредственно коррелируют с обозначенными положениями новой «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»¹, где основополагающими ценностями государства и узбекского народа обозначены ценность человека как личности, творческая созидательность, образование, культура, наука, литература, искусство, гармонично развитая молодежь, мир, межнациональное согласие, добрососедство, религиозная толерантность, независимость, стабильность, безопасность и т.д.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

Таким образом, актуальность темы диссертационного исследования определяется насущной потребностью в решении проблем изучения Корана и коранических мотивов в русской литературе как явления межкультурной коммуникации, раскрытия сущности заложенного в Коране культурно-знакового текста как квинтэссенции вечных духовных ценностей, феноменально сочетающих в себе исламскую духовность и общечеловеческие идеалы, в определении универсальных ценностных координат Корана и их рецептивного преломления в творчестве А.Пушкина, М.Лермонтова и И.Бунина.

Представленное диссертационное исследование, в определенной степени, служит выполнению задач, предусмотренных в ряде законодательных и нормативно-правовых актов: в Указе Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования»; №8 УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан» до 2030 года от 8 октября 2019 года, в постановлениях № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности, организации, управления и финансирования научно-исследовательских работ Академии наук» от 17 февраля 2017 года, № ПП -2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, № ПП-3271 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения» от 13 сентября 2017 года, № ПП – 3575 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года и в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан.

Соответствие темы исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике – 1. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Научные исследования в области теории ориенталистики и осмысления коранических мотивов как значимой составляющей явления межкультурной коммуникации осуществляются в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, в том числе в таких, как Université libre de Bruxelles, Vrije Universiteit Brussel (Бельгия), Cambridge University, Oxford University, (Великобритания), Австралийский национальный университет (Австралия); Страсбургский университет (Франция); Институт востоковедения

² Обзор международных научных исследований по теме диссертации подготовлено на основе таких источников, как: www.edu.uz; academia.edu; philology.ru; internauka.ru; cyberleninka.ru; doi.org.

Российской академии наук, Московский государственный университет им. Ломоносова, Санкт-Петербургский государственный университет, (Россия); Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека, Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы им А.Навои (Узбекистан) и др.

На данный момент можно отметить, что были изучены вопросы исследования жанрово-тематического единства восточных текстов (Lancaster University, Великобритания; Российский государственный педагогический университет им. А.И. Герцена, Россия), рассмотрены ключевые позиции по использованию коранических историй и сказаний в мировой литературе (Tehran State University, Iran Ain Shams University (Cairo, Egypt); выявлен характер религиозно-философского аспекта жанров и типов восточных текстов (Башкирский государственный университет им. М. Акмуллы); изучено многообразие свойств проявления ориентальных мотивов в художественной литературе, выявлены особенности изображения Востока в русской литературе (Московский государственный университет им. М.В. Ломоносова), представлены особенности мусульманского текста русской литературы как объект структурного анализа (Томский государственный университет); определена сущность исламских мотивов и образов в русской литературе 20–30-х годов XIX века (Кыргызско-Российский Славянский университет). На сегодняшний день в контексте современных исследований литературного наследия Востока и ориентальных концепций проводятся активные исследования по следующим приоритетным направлениям: восточная тема в русской литературе; восточный эпистолярный и его проявления в литературе, травелогическая и имагинативная география восточного текста, историография русского ориентализма, религиозно-философский аспект коранических мотивов, концептосфера русского ориентализма, жанрово-тематическое единство восточного текста русской литературы, кораническая нарратология. Общей связующей нитью всех этих направлений является комплексный междисциплинарный подход к изучению литературоведческих явлений сквозь призму проблем взаимодействия человеческого фактора и окружающей действительности в процессах понимания и интерпретации текста.

Степень изученности проблемы. Нужно отметить, что выявление культурных связей и взаимодействия России и Востока как реальной возможности плодотворного литературного взаимодействия рассматривались исследователями на протяжении всего XX века. Методологическая основа и теоретический фундамент подобных научных разработок вопросов взаимосвязей и взаимодействий литератур заложены в трудах В.М.Жирмунского, И.С. Брагинского, В.М. Конрада, М.П. Алексеева, И.Г. Неупокоевой³. Многогранные исследования

